

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

ABDULLAYEVA GULNOZA SAYFULLAYEVNA

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH
JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

«5310200-Psixologiya» yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. A.I.Saidov

Bitiruv malakaviy ishi «Psixologiya» kafedrasining 2014 yil 30-maydagi yig`ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

p.f.n. dots. A. I. Saidov

BMI YADAKning 2014 yil _____iyundagi majlisida muhokama qilindi va
_____ ballga baholandi (bayonnoma №____)

YADAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand-2014

SamDU Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrasining 2014 yil 30-may
navbatdagi № 10 bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 15 nafari.

Majlis raisi: p.f.n. dots.A. Saidov

Kotib: V. Axrorov

KUN TARTIBI

«Psixologiya» kafedra 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

Eshitildi 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri p.f.n. dots A.I.Saidov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi

2013-2014 o'quv yilida Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Abdullayeva Gulnozaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini yozdi.

Ilmiy rahbari: dotsent A.Saidov ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi bor.

Shuning uchun so'zni Abdullayeva Gulnozaga bersak. U malakaviy bitiruv ishining mazmuni bilan tanishtirdi.

Abdullayeva Gulnoza malakaviy bitiruv ishining mazmuni, mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amalga oshirgan ishlari haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga o'qituvchilar dots. Saloxiddinova M, o'qituvchilar Sulaymonov M va Qodirov O savollar berishdi. Savollarga Abdullayeva Gulnoza ijobiy javob berdi.

Abdullayeva Gulnozaning chiqishi, savol javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YADAKga himoyaga tavsiya etish haqida fikr mulohazalar bildirildi.

QAROR QILINDI

1. Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Abdullayeva Gulnozaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YADAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Abdullayeva Gulnozaning ushbu malakaviy bitiruv ishiga SamChTI dotsenti, E.Iskandarov taqrizchi deb belgilansin.

«Psixologiya» kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

Majlis raisi: _____ **p.f.n. A.Saidov**

Kotib: _____ **V. Axrorov**

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Abdullayeva Gulnozaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

MULOHAZASI

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimida o'ziga xos o'zgarishlar paydo bo'liyaptiki, unda har shaxsning ma'naviy, madaniy va intellektual salohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bilish jarayonlari muammosi psixologlar tomonidan har tomonlama tadqiq qilinishiga qaramay, unga har xil pozisiyadan turib yondashilgan, turli aspektlarada yoritilgan. Shuning uchun bu to'g'risida umumiy nuqtai nazar, umumiy mezon yuzasidan mulohaza yuritish mumkin emas. Shuningdek, aqliy taraqqiyot komponentlari bo'yicha ham xuddi shu fikrlarni bildirish o'rinlidir.

Abdullayeva Gulnoza tamonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi: Bolalarni maktabga tayyorlashda bilish jarayonlari muammosining psixologiyada o'rganishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'lib bunda bolalarni maktabda bilish jarayonlarini o'rganish va aqliy taraqqiyotda bolalar bog'chasi va maktab ta'lim-tarbiya ishidagi izchillikning psixologik mazmuni shuningdek bolani maktabda o'qishga axloqiy-irodali tayyorlashning psixologik asoslari yoritib berilgan.

Ishning ikkinchi bobida Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishda psixologik ko'rsatgichlarining o'ziga xos xususiyatlari deb nomlangan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirishda jismoniy rivojlanishining ijtimoiy-psixologik ko'rsatgichlari va bilish jarayonlarini psixologik asoslari ta'kidlab o'tilgan.

Xulosa qismida har ikkala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib Abdullayeva Gulnozaning mazkur malakaviy bitiruv ishini ijobiy baholayman va uni himoyaga tavsiya etaman.

SamDU

psixologiya kafedrasi dotsenti

A. Saidov

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Abdullayeva Gulnozaning «Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk qadamlardan oq jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan siyosiy va iqtisodiy tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar qilinmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatda ta'lim muassasalari faoliyatini me'yorlashtiruvchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risida Nizom", "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi.

Maktabga bolalarni aqliy tayyorlashda ta'limiy - tarbiyaviy ishni rejalashtirish psixologlar, pedagoglar: tarbiyachi, tarbiyachi - metodist, mudira faoliyatining muhim turlaridan biridir. Rejalashtirish ta'lim - tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalaniladigan vosita, ish, usul va metodlarini ko'rsatib, ta'lim - tarbiyaviy ish dasturini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogik bolalar bog'chasi ishini rejalashtirish mumkinligi va zarurligini ta'kidlab, bunda u inson shaxsini shakllanishida ijtimoiy omillar - muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqidagi asosiy qoidalarga tayanadi. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullari, ma'naviy va estetik baholarda va shu kabilar shaklida berilgan ijtimoiy - tarixiy tajribani bola tomonidan egallanilishi amalga oshiriladi.

Abdullayeva Gulnoza tamonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi: Bolalarni maktabga tayyorlashda bilish jarayonlari muammosining psixologiyada o'rganishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'lib bunda bolalarni maktabda bilish jarayonlarini o'rganish va aqliy taraqqiyotda bolalar bog'chasi va maktab ta'lim-tarbiya ishidagi izchillikning psixologik mazmuni shuningdek bolani maktabda o'qishga axloqiy-irodali tayyorlashning psixologik asoslari yoritib berilgan.

Ishning ikkinchi bobida Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlantirishda psixologik ko'rsatgichlarining o'ziga xos xususiyatlari deb nomlangan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirishda jismoniy rivojlanishining ijtimoiy-psixologik ko'rsatgichlari va bilish jarayonlarini psixologik asoslari ta'kidlab o'tilgan.

Xulosa qismida har ikkala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Umuman olganda mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzuga mos ravishda mazmunli qilib yoritilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Sam CHTI dotsenti :

E.Iskandarov

MUNDARIJA

Kirish.....	
I BOB. BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA BILISH JARAYONLARI MUAMMOSINING PSIXOLOGIYADA O'RGANISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	
1.1. Bolalarni maktabga bilish jarayonlari ko'nikmalarini o'rganish masalalari.....	
1.2. Aqliy taraqqiyotda bolalar bog'chasi va maktab ta'lim-tarbiya ishidagi izchillikning psixologik mazmuni.....	
1.3. Bolani maktabda o'qishiga axloqiy – irodali tayyorlashning psixologik asoslari.....	
II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK KO'RSATGICHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.	
2.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirishda jismoniy rivojlanishining ijtimoiy-psixologik ko'rsatgichlari.....	
2.2. Shaxsiy psixologik ko'rsatgichlari.....	
2.3. Bilish jarayonlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari.....	
Xulosa	
Tavsiyalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	
Hlova.....	

Kirish:

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimida o'ziga xos o'zgarishlar paydo bo'liyaptiki, unda har shaxsning ma'naviy, madaniy va intellektual salohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bilish jarayonlari muammosi psixologlar tomonidan har tomonlama tadqiq qilinishiga qaramay, unga har xil pozisiyadan turib yondashilgan, turli aspektlarada yoritilgan. Shuning uchun bu to'g'risida umumiy nuqtai nazar, umumiy mezon yuzasidan mulohaza yuritish mumkin emas. Shuningdek, aqliy taraqqiyot komponentlari bo'yicha ham xuddi shu fikrlarni bildirish o'rinlidir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi Atoqli psixolog L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muamosiga o'zining munosib hissasini qo'shgan olimlardan biridir. L.S.Vigotskiy tomonidan muammoning ijtimoiy-tarixiy aspekti olg'a surilib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir degan tushunchadan iboratdir. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotning madaniy tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning "tabiiy" formasini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, "madaniy" formasini egallash tushuniladi. L.S.Vigotskiy fikricha, psixik jarayonlarni bevosita ifoda qiluvchi so'z xoh tashqi xoh ichki ko'rinishga ega bo'lmasin, turli xil alomatlar ichida ko'rinarli joy egallaydi. Alomatlarni egallash sifat jihatidan psixik funksiyalarni qayta qurish kerakligini, sifat bo'yicha mutlaqo boshqa, yangi taraqqiyot bosqichi ekanligini bildiradi. Shu bilan birga insoniyatning tarixiy taraqqiyotida hosil bo'lgan xuddi shu alomatlarni egallash, ta'lim jarayonida ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish natijasida erishilgan bo'lishi mumkin. Xuddi mana shu fikrdan L.S.Vigotskiyning ta'lim va taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi bo'yicha tutgan o'rni yaqqol ko'zga tashlanadi.

Albatta, psixalogiya fanida bolalarni maktabga aqliy tayyorlash maqsadida intellektual qobiliyatlarni o'rganish bo'yicha juda ko'p psixodiagnostik testlar mavjud. Bular qatoriga dunyoga tan olingan "Piktogramma", "Raven", "Meyli", "Kettel", "MATT" kabilarni kiritish mumkin. Aytish joizki, har bir testning o'ziga xos salmog'i, ilmiy amaliy ahamiyati va o'rni bor. Mazkur bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida ushbu testlardan ba'zi birlari ishda ko'rsatib o'tilgan.

Ishning maqsadi: Bola shaxsini aqliy imkoniyatlari va taraqqiyoti, bola shaxsini o'ziga xos xususiyatlari va bola shaxsida aqliy taraqqiyot muhim tamoyilini kishilarga keng ko'lamda tushuntirish shu asosda tegishli, psixologik, ilmiy amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish. Ushbu tavsiyalarni maktab aqliy taraqqiyot testi olingan xulosalar asosida bolani aqliy tayyorlashning psixologik asoslarini ishlab chiqish.

Ishning obekti: Maktabgacha yoshdagi bolani o'quv bilish jarayonlarini o'rganish jarayoni.

Ishning predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi.

Ishning vazifalari:

1. Mavzuga oid ilmiy-psixologik manbalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish.
2. Bola shaxsida bilish jarayonlarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik, didaktik-psixologik asoslarini ishlab chiqish.
3. Bola shaxsida bilish jarayonlarini psixologik tomondan taraqqiy etishning takomillashtirish yo'llarini belgilash.
4. Bilish jarayonlarini rivojlantirishda ta'lim sohasining takomillashtirilgan, boyitilgan bilish jarayonlarining samaradorlik darajasini aniqlash.

Ishning metodlari : Qiyosiy tahlil, suhbat, anketa, savol-javob, psixologik eksperiment, test nazorat, umumlashrish va matematik statistika.

Ishning metodologik asosi : Ilg'or ilmiy psixologiya fanida shaxs ijtimoiy taraqqiyoti bo'yicha yaratilgan umumiy qonuniyatlar, konsepsiyalar, shuningdek, shaxsga individual yondashuv prinsiplari (B.P.Teplov, V.S.Merlin, N.S.Letis, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev va boshqalar).

Shaxs va ijtimoiy ustanovka prinsiplari (D.Uznadze, Sh.A.Nodirashvili, A.G.Asmolov, G.Ollport, G.Rozenberg va boshqalar), shaxs va munosabat mutanosibligi prinsiplari (V.N.Myasishev, T. Liri, S.L.Rubinshteyn, B.S.Merlin va boshqalar), buyuk sharq allomalaridan Abdulla Avloniy, Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimizning qomusiy asarlarida ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ta'limotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari g'oyasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqalar. Aqliy tarraqqiyot ko'nikmalarini o'rganish masalalari Veksler metodi va uning moslashtirilgan varianti. Bilish jarayonlarini o'rganishda Kettel testi qo'llash uslubi.

Ishning ilmiy farazi: Agar bolani bilish jarayonlari shu jumladan, maktabgacha ta'lim turli predmetlararo ta'lim sohasi davr talabi, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda didaktik-psixologik asoslarga tayanib boyitilsa va takomillashtirilsa barcha metodik majmualar bola shaxsiga nisbatan aqliy rivojlantiruvchi xarakter kasb etadi, ta'limning samaradorli darajasi ortadi hamda ta'lim jarayoni muntazam tarzda rivojlantiruvchi mazmun kasb etadi.

Ishning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati:

a) amalga oshirilgan tajriba natijasida bilish jarayonlarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik asoslari ishlab chiqariladi;

b) aqliy taraqqiyotni rivojlantirishning amaliyotga joriy qilishda maktabgacha aqliy ta'lim oldiga qo'yilgan ijtimoiy-psixologik talabning ko'lami aniqlanadi;

Ishning amaliy ahamiyati:

a) mazkur ish yakunida bolani maktabga aqliy tayyorlash mashg'ulotiga kiritiladigan yangi o'quv materillarining mazmuni belgilab berildi;

b) maktabgacha bilish jarayonlari ta'lim sohalari standartlarning mazmun va tarkibiy tuzilishi takomillashtirildi;

v) bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni boyitish imkoniyati vujudga keldi;

g) bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar kengaydi;

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Bolani bilish jarayonlari shu jumladan maktabgacha ta'lim DTS turli fanlar hamda ta'lim sohalari standart ko'rsatgichlarning tahlili.

2. Bolani bilish jarayonlarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik, didaktik-psixologik muammo sifatida zarurligi.

3. Bolani bilish jarayonlarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

4. Maktabgacha ta'lim hamda bilish jarayonlari ta'lim sohalari standart ko'rsatgichlarining mazmuni va tuzilishi ularga kiritiladigan yangi bilim va tushunchalar.

5. Takomillashtirilgan aqliy rivojlantirishdagi ta'lim sohasi bilish jarayonlarining samaradorlik ko'rsatgichlari darajasi.

Ishning tarkibiy tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi 2 ta bob, umumiy xulosalar, tavsiyalar, ilova, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1 BOB BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA BILISH JARAYONLARI MUAMMOSINING PSIXOLOGIYADA O'RGANISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

1.1. Bolalarni maktabga bilish jarayonlari ko'nikmalarini o'rganish masalalari.

Mamlakatimizda mustaqillik yilidagi ilk qadamlardan oq jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan siyosiy va iqtisodiy tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar qilinmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatda ta'lim muassasalari faoliyatini me'yorlashtiruvchi "Ta'lim tog'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risida Nizom", "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi.

Isloh etish jarayonida bolalarga ta'lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl va uslublari, shuningdek, psixologiya, pedagogika fani taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari qamrab olinmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida otionalarning o'rni va javobgarligi oshirildi.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unga o'z kuchiga ishonchini ortirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda biror qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

"O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limi uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta'lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun bolalar bog'chalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi.

Bolalarni maktabga aqliy tayyorlashning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu bolalar bog'chasi va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning haqiqiy asosini tashkil qiladi.

Bolalar bog'chasi va maktabdagi ta'lim va tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish muhim ahamiyatga egadir.

6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish - bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki bog'chadagi ta'lim va tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olish lozim.

Bolalarni maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarda anchagina jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqardi. Shuning uchun bolalarni bog'chada yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak

bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining qiyinchiliklaridan xalos bo'lishiga yordam beradi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: jismoniy, shaxsiy(ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-mator muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

"Rivojlanmaganlik"ning asosiy belgilari o'ziga xos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlarida ko'rinadi. Masalan - suyak tuzulishida, past bo'yli bolalarda o'z yoshiga ko'ra tana bo'yi va og'irligida nomutanosiblik, tanadagi muvozanat buzulishlari, yurak-qon tomir tizimidagi fiziologik yetishmovchiliklar, tez toliqishlar, jismoniy yuklamalarni bajarishdagi imkoniyatlari pastligi shular jumlasiga kiradi.

Jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun yoshga mos bo'lishi lozim bo'lgan bo'y, vazn, bosh, ko'krak aylanasi me'yoriy ko'rsatkichlari hamda qo'l mushaklari va asosiy harakatlari rivojlanganligini aniqlash usullari berilgan.

Shaxs (ruhiy) tayyorgarligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'ziga, o'simliklar, jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, insonlar yaratuvchiligiga munosabatda yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutiladi. Eng muhimi bola ongida qanday umumiy axloqiy tamoyilning mustahkamlanganligi, u tomonidan ijtimoiy axloq me'yorlari va umuminsoniy qadriyatlarning tan olinganligi, "nima yomonu, nima yaxshi"ligini anglaganidir.

Shaxs (ruhiy) tayyorligida eng muhim jihat "bolaning ichki pozitsiyasi" shakllanganligidir yoki "motivatsion tayyorgarlik", ya'ni, o'quvchining kattalar va tengdoshlari bilan muomalada bo'lishiga, topshiriqni bajarishga, tengdoshiga yordam berishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq sabablarga ko'ra maktabga borish istagini uyg'otishdir.

Shaxs rivojlanishi ko'pincha oiladagi tarbiyaga bog'liq.

Tortinchoq, ko'proq bolalar qat'iy nazoratda ushlab turiladigan, bola tashabbusi bo'g'iladigan oilalarda bo'ladi va oxir-oqibatda u faqatgina kattalar yoki birovning ruxsati bilan harakat qiladigan bo'lib qoladi.

Bolani maqtaydigan, noo'rin siylaydigan oilalarda ular ko'pincha boshqarilmaydigan, haddan tashqari faol, kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilishni bilmaydigan, aniq asoslar unda bo'lmasa-da, buyruq berishga va yetakchi bo'lishga intiladi.

Bola o'z holiga qo'yib qo'yilgan, nazoratsiz, unga nisbatan befarqlik hukmron bo'lgan oilada voyaga yetayotgan bo'lsa uning fe'l-atvorida hissiy ojizlik, g'amginlik, serzadalik, jangarilik, qat'iyatsizlik kabi salbiy alomatlar paydo bo'la boshlaydi.

Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqillikning, o'zini-o'zi nazorat qilishiga va boshqarishga imkoniyatning shakllanganligini hamda o'quv faoliyatining kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, uyg'unlashtirish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi;

Xotira aqliy rivojlanishning bir ko'rsatkichi sifatida qachonki bola eshitib, yaxshi eslab qolsa "eshitish" yoki qachonki bola ko'rib yaxshi eslab qolsa "ko'rish" va qachonki bola eshitgan va ko'rganlarining asosiy mazmunini, aytib bersa "mazmunini eslab qolish" kabi turlarga bo'linadi.

"Ko'rib, eslab qolish" xotirasini rivojlanishi uchun mashq qildirish befoyda, chunki u har kimga tabiatan berilgan. "Mazmunini eslab qolish" xotirasini yaxshilash uchun esa albatta mashq qildirish kerak.

Bolaning maktabda ta'lim olish samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqi qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi, yutuqlaridan erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosida quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun

amaliy intellekt rivoji ya'ni, uning namunani oson va erkin takrorlay olishi; naqsh chizish, aytib turiladigan (grafik diktant) bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi.

Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dastur materiallarini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, bolaga o'qishni, uning ustiga tez o'qishni, va yozishni o'rgatish unchalik muhim emas. Asosiysi, bolaning lug'at boyligini oshirish, undan ongli va faol foydalana olishini, tovushni tiniq eshitishini, aniq talaffuz qilishini, ularni so'zlardan ajrata bilishni ta'min etish va "uchinchi ming yillikning bolasi"dasturiga kiritilgan savodxonlik bo'yicha oddiy bilimlarni, matematik tasavvurlarni egallashga erishishdir. Agar bolada qo'l mushakchalari yetarli darajada rivojlangan bo'lsa u maktabda 1-sinf ta'limi jarayonida 2 - 3 oy davomida o'qish va yozish texnikasini qiyinchiliksiz egallab oladi. Maxsus tayyorgarlikning asosiy ko'rsatkichlari, bu - faoliyatning tushunib yetilishi va erkinligi, ijodiy tasavvurning rivojlanganligi hisoblanadi. Bu sifatlar bolada maktabgacha yosh davrining so'ngida savodxonlik, matematik, o'ziga xos faoliyatning, ya'ni, o'yin, konstruksiyalash (qurish-yasash), chizish, ko'nikma-malakalarini egallash asosida paydo bo'ladi.

Ijodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan bola yangi o'quv materialini mustaqil tushunib yetishga, izlanish faoliyatiga, pedagoglar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga tayyor bo'ladi. U bilishga qiziquvchan, faol, tashabbuskor bo'lib, nafaqat kattalar tomonidan taklif etilgan topshiriqlarni bajarishga, balki, o'zi va boshqalar oldiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Shuni unutmazlik kerakki, maktabga aqliy tayyorgarlik bolaning hissiy boy hayoti faoliyatini tashkil etishdan iborat. Bu jarayonning qayerda, ya'ni uyda yo bog'chada kechishidan qat'iy nazar, bolaning kelajakdagi rivojiga asos bo'ladigan ushbu noyob davrni uning maktabgacha bolalik pallasidagi qiziqish va ehtiyojlarini qoldiradigan yorqin, unutilmas voqea va ishlar bilan boyitiish kerak.

Maktablarning 1-sinflari o'qituvchilari maktabgacha yoshdagi bolani qabul qilishda shuni unutmasliklari kerakki, 6 hatto, 7 yoshli bola 1-sinfga kirishda uning oiladami, bog'chadami, maktabgacha ta'limni to'liq olganligidan qat'iy nazar, o'quv faoliyatining ma'lum bir ko'nikmalariga ega bo'lsa-da, baribir ma'lum muddatgacha bola maktabgacha yoshdagi davrning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab turadi. U hali o'quv faoliyati uchun kerakli bo'lgan sifatlar va uddaburonlikka ega emas. U bu xislatlarni o'quv jarayoni davomida egallashni davom ettiradi. Bolaning maktab hayotiga kirishishi bilan uning sistematik maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rishi davom etadi. Albatta, bu jarayon bola vakolatining oshib borishini hisobga olgan holda, yuqorida sanab o'tilgan - jismoniy, shaxsiy, aqliy va maxsus tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha olib borilishi kerak. Masalan, bolaning faol harakatlanuvchan ekanligini hisobga olsak, uning bu ehtiyojini maktabda jismoniy tarbiya darsida, katta tanaffusda, shuningdek, sinfdan tashqari ishlar jarayonida qondirish zarur. Buning uchun boshlang'ich sinf bolalariga yoshiga xos fikrlashini, tasavvurini, izlanishini faollashtiradigan va o'quv faoliyatining boshqa muhim ko'nikmalarini hosil etadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratish zarur.

Boshlang'ich maktabda, asosan ta'limning birinchi yilida maktabgacha bolaning asosiy va unga ma'qul keladigan faoliyat turi o'yinlar ekanligini hisobga olgan holda o'yin usullarini kengroq qo'llash zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o'qitish bosqichida bog'chada ham, maktabda ham ularga o'qishda birdan qat'iy belgilangan talablarni qo'yish mumkin emas, faqat maktab-dars tizimidagi ta'limni qo'llash zarur. Namuna uchun bolalar bog'chasida va maktabda ta'lim shakli munosabatligi taqsimoti:

- bolalar bog'chalarining katta va tayyorlov guruhining - 80% o'yin, 20% - mashg'ulot;
- birinchi sinflarda (1-yarim yillikda) - 60 % o'yin, 40 % - dars;
- birinchi sinflarda (2-yarim yillikda) - 30 % o'yin, 70% - dars;

Katta va tayyorlov guruh tarbiyachilari va 1 - sinf o'quvchilarining asosiy vazifasi - ta'limning birinchi bosqichida bola hayoti va faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos maktabgacha shakl va metodlarini ta'min etish. O'yin faoliyati bolalar uchun ma'lum muddat yetakchi bo'lib qolishi va bundan birdan voz kechmaslik, balki u asta-sekin tabiiy holda o'z o'rnini boshqa, ya'ni o'quv faoliyatiga bo'shatib berishini nazarda tutish kerak.

Oila sharoitida, bolalar bog'chalarida, maxsus tashkil etilgan guruhlarda yoki bolalarni maktabga aqliy tayyorlash bo'yicha "Markaz"larda bolalarni ta'limga psixologik jihatdan tayyorlash ishida sharoitning, imkoniyat va aniq natijalarning turlicha ekanligi ushbu ish bilan shug'ullanuvchi barcha muassasalar uchun bolalarning maktab ta'limga aqliy tayyorgarligi darajasini baholashning yagona mezonlarini aniqlashtirib olish hamda ularga asoslanib, 6-7 yoshli bolalarni maktabning 1- sinflariga qabul qilishni yo'lga qo'yish zaruriyatini tug'dirdi.

"Bolaning maktab ta'limiga aqliy tayyorligi" darajasini tayyorlash usullari (ularni qo'llash metodikasi bilan) hozirda mavjud. Xalqaro miqyosidan sinovdan o'tgan Kern Irasek, Vengerning klassik testlaridan hamda O'zbekiston, Rossiyaning maktabgacha ta'lim bo'yicha olimlari va amaliyotchilari tomonidan tuzilgan testlardan tanlab olingan.

Barcha metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar yosh xususiyatlari, imkoniyatlari va rivojlanishdagi o'ziga xosliklar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan hamda to'liq holda maktabgacha ta'lim muassasalari turlari uchun majburiy bo'lgan hududiy "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va tarbiyasi dasturi"ga kiritilgan maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablariga mos keladi.

Bolani 6 yoshdan albatta maktabga berishga intilish kerakmi, degan savolga javob quyidagicha:

- bolaning maktabga borish yoshi uning tayyorligi hisobga olingan holda, uyg'unlashtirilgan tarzda aniqlanadi.

Berilayotgan testlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarga qat'iy amal qilish bolaning "maktabga tayyor"ligi darajasiga ma'qul, xolis baho berishni ta'minlaydi.

Bolaning maktab ta'limini boshlariga tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablari tizimi faqatgina aniq bilimlar, uddaburonliklar va malakalar ro'yxatdan iborat emas, balki u o'z ichiga bolaning har tomonlama jismoniy, shaxsiy-ruhiy rivojlanganligi, maxsus o'quv va o'quv faoliyati ko'nikmalari shakllanganligini o'z ichiga oladi.

Davlat testlarining kiritilishi tarbiyaviy - ta'limiy jarayonni qat'iy qolipga bo'ysundirishni anglatmaydi. Aksincha, ular bolaning qayerda maktabga tayyorlov bosqichidan o'tganligidan qat'iy nazar hamma bolalar uchun teng rivojlanish darajasini ta'min etadigan, asosiga quyidagicha yagona talablar qo'yilishi lozim bo'lgan ta'lim modellaridan va texnologiyalaridan to'g'ri va ijodkorlik bilan foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Undan tashqari bu talablar aniq bilimlar va malakalar bilan qat'iy chegaralanmagani bois bolaning rivojlanish jarayonining bir maromda emasligi va mustaqillik amalga oshirilishini hisobga olish imkoniyatini beradi.

Bolalarni maktabga aqliy tayyorlash ta'lim darajasiga qo'yilayotgan davlat talablari, ularning turi, shaklidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir (qanday yo'nalishdalgidan qat'iy nazar jismoniy, ruhiy asab rivojlanishida nuqsonli bolalar tarbiyalanadigan muassasalar bundan mustasno).

Maktabgacha ta'lim darajasi xususiyatlari maktabgacha yosh davri davomida tashkil topib, bunda doimiy o'zgarishlar bo'lib turadi hamda har bir yosh bosqichida o'ziga xos mazmunga ega bo'ladi.

1.2. Aqliy taraqqiyotda bolalar bog'chasi va maktab ta'lim-tarbiya ishida izchillikning psixologik mazmuni

Mamlakatimizdagi ijtimoiy maktabgacha muassasalar ta'lim-tarbiyaviy ishning keng dasturini amalga oshirib bolalarni maktabga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda bolalar bog'chasi va maktab ishida izchillik katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari xalq ta'limi tizimi, uning tarkibiy tuzilishi va amalda bo'lishining asosi hisoblanadi.

Bolani maktabga aqliy tayyorlashning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu bolalar bog'chasi va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning haqiqiy asosini tashkil qiladi.

Bolalar bog'chasi va maktabdagi ta'lim va aqliy tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish izchillik ifodasi hisoblanadi.

Izchillik rivojlanishning turli bosqich yoki bo'g'inlari o'rtasidagi o'ziga xos aloqa sifatida ta'riflanib, uning mohiyati bir butunning u yoki bu elementlarini yoki bir butunni sistema sifatida o'zgartirilganda uni tashkil etishning ayrim tomonlarini saqlashdan iboratdir: yangilikda oldingi rivojlanish bosqichining elementlari doimo saqlanadi. Klassik falsafa namoyondalari izchillik rivojlanish qonuniyat sifatida rivojlanishning uzviyligini to'liq inkor etish yo'li bilan emas, balki, uning eng muhim elementlarini jamlash va ularni yanada rivojlantirish uchun yangi bosqichga ko'chirish orqali ta'minlaydi, deb ta'lim beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, **bolalar bog'chasi va maktab** izchilligini, birinchidan, bolalar bog'chasidagi ta'lim - tarbiyaviy ishning bolalarga ular umumiy rivojlanishining zarur darajasiga erishishlari uchun maktabda qo'yiladigan talablarga yo'llanganligi, ikkinchidan, o'qituvchining katta

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar erishgan rivojlanish darajasi, bolalarni aqliy bilim, malaka va ko'nikmalariga tayanish hamda bundan ta'lim-tarbiya jarayonida faol foydalanishga yo'llanganlikni nazarda tutuvchi mazmunli, ikki tomonlama aloqa, deb qarash mumkin.

Maktab maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning muhim "istiqbolli" rivojlantirishni ta'minlaydi va shu bilan birga bola shaxsininig boshlang'ich ta'lim maqsad va vazifalariga muvofiq keluvchi sifat jihatidan yangi xususiyat hamda xislatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Izchillik bolalar bog'chasi va maktabdagi psixologik- pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning shaxsni uzluksiz yuksalib boruvchi shakllanishini ta'minlovchi yaxlit, dinamik va istiqbolli tizimini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Bolalar bog'chasi va maktab o'rtasidagi izchillikning qaror topishi katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va quyi sinflar o'quvchilariga aqliy ta'lim - tarbiya berish sharoitlarini yaqinlashtirish imkonini beradi. Shunga ko'ra maktab ta'limining yangi sharoitlariga o'tish bolalar uchun sezilarsiz bo'lgan psixologik qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Bunda bolalarning yangi sharoitlarga tabiiy kirib borishlari ta'minlanadi, bu o'quvchilarga maktabga birinchi kelgan kunlaridan boshlaboq ta'lim va tarbiya berish samaradorligini oshirishda yordam beradi.

Bolalar bog'chasi va maktab o'rtasidagi uzviylik murakkab tarkibiy tuzlishga ega. Unda yetakchi yo'nalishlar aqliy ta'lim va tarbiyadagi izchillik hamda ularning tarkibiy qismlari: ta'lim-tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlaridagi izchillik, shuningdek, bolani tarbiyalashdagi psixologik talablar va sharoitlar izchilligini farqlash mumkin.

Bolalar bog'chasi va maktabdagi butun psixologik-pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'llanganligi ular o'rtasida ta'lim-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolalar egallagan xulq-atvor va katta yoshlilar va hamda tengqurlari bilan o'zaro munosabatlar shakllari, ma'naviy tasavvurlar va

hissiyotlar boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyaning, o'quvchilarda rivojlantiriladigan ma'naviy hatti-harakat, ong, hissiyot va munosabatlarning zamini hisoblanadi.

Maktab - maktabgacha yillarda shakllantiriladigan jamoatchilik "jamoatchilik" xususiyatlarini sifat jihatda yanada rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratdi hamda o'quvchi shaxsi jamoatchilik yo'llanganligini qaror toptirishni ta'minlaydi. O'quvchilarni maktabga bo'lishlarining dastlabki kunlaridan boshlab bolalar bog'chasida boshlangan o'quvchilar ma'naviy tasavvurlari va xulq - atvorlari birligini shakllantirish, ularda o'z faoliyat va hatti harakatlari uchun shaxsiy mas'uliyatni oshirish bo'yicha ish davom ettiriladi. Maktabda o'quvchilarda yuksak insoniy hissiyotlar: vatanparvarlik, vatan oldida o'z burchini his etish kabi hissiyotlar tarkib toptiriladi. Bu murakkab ma'naviy hissiyotlar asosini maktabgacha yillarda shakllantiriladigan ota-onaga, oilasiga muhabbat, katta yoshlilarga hurmat, tabiatni sevish va shu kabilar tashkil qiladi.

Maktabda bolalarning nafosat tarbiyasiga doir ish davom ettiriladi. O'quvchilarda estetik tasavvurlar, voqeilikni estetik ko'ra bilish chuqurlashtiriladi. Musiqa va ashula darslarida bolalar musiqa janrlari bilan tanishadilar, ashula, raqs, marshni farqlashni o'rganadilar. Tasviriy san'at darslarida bolalar grafika, rassomlik, manzaralari amaliy san'at asarlari o'rtasidagi farqlarni, natyurmort, manzara, portretning o'ziga xos belgilarini o'zlashtiradilar. O'qish darslarida adabiyot janrlari bilan amaliy tanishiladi. O'quvchilarning badiiy faoliyatlarining har xil turlardagi amaliy ko'nikmalari ham takomillashadi, ijodiy aqliy qobiliyatlari rivojlanadi.

Maktabda bolalar bog'chasida boshlangan o'quvchilarda kishilar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar go'zalligini, qahramonona jasorat go'zalligini ko'ra bilish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish davom ettiriladi, xulq-atvor etikasi tarbiyalanadi.

Maktabda bolalar mehnatsevarlik, mehnat ahliga ijobiy munosabatni shakllantirish, mehnat, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishga doir ish izchilligi yanada rivoj topadi. Mehnat ta'limiga doir bolalar bog'chasi va maktab

o'rtasidagi izchillik mehnatning mazmunini murakkablashtirish va ijtimoiy foydaliligini yo'nalganligini oshirish, bolalarning mehnatdagi mustaqillik va o'zlarining uyushtirishlarini orttirish hamda bolalar tomonidan mehnat faoliyatida tarkib topadigan axloqiy munosabatlarni anglash yo'nalishida boradi. Maktabning ta'lim-tarbiyaviy jarayonida bolani shakllanayotgan shaxsning barcha tomonlarini rivojlantirishda izchillik amalga oshiriladi.

Bolalar bog'chasi va maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ish mazmunini belgilovchi dasturlar aloqasi izchillik asosini tashkil qiladi.

Bolalar bog'chasi va boshlang'ich sinflarning amaldagi dasturlarini qiyoslash ular o'rtasida ma'lum izchil aloqa borligini ko'rsatadi. Bu eng avvalo, dasturlarga asos qilib olingan boshlang'ich falsafiy va psixologik nuqtai - nazarlar birligi, prinsiplar birligi (mazmunning tarbiya maqsadi va vazifalariga muvofiqligi, hayot bilan aloqasi ilmiyligi, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi tabiati va shu kabilar). Ayrim fanlar bo'yicha (ona tili, matematika va bo.) 1- sinf o'quv dasturlari yoki tayyorlov sinflari dasturlarini "Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi"ning tegishli bo'limlari bilan qiyoslash tegishli mazmunni ko'rib chiqishga yondashuvda asosiy o'rinlarda umumiylikka erishish moyilligi borligini ko'rsatadi.

Masalan, bolalar bog'chasida va maktabda ona tilining boshlang'ich kursini o'qitishga bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirish g'oyasi asos qilib olingan. Bolalar bog'chasida u lug'atni rivojlantirish, tovushni to'g'ri talaffuz qilish va nutqning ifodaliligi, mantiqli nutqni rivojlantirishda amalga oshiriladi. Maktabda bu asosda yangi vazifalar hal etiladi: yozma nutq va harfiy yozuv malakalari shakllantiriladi, morfologiya va sintaksis elementlari o'rganiladi.

Shu bilan bir vaqtda bolalar bog'chasida boshlangan lug'at boyligini yanada oshirish, nutqning ifodaliligi va mantiqiyligi ustidagi ish davom ettiriladi.

Bolalar bog'chasi va boshlanqich sinflardagi tabiatshunoslik bilimlari har ikkala holatda ham organizm va muhit birligiga tayanadi. Jonli va jonsiz tabiat

hodisalari, tabiat va kishilar mehnatining bir-birini taqozo etishi shu asosda qaraladi.

Bolalarni bog'cha va maktabda o'qitish izchilligi asosini tashkil etuvchi yagona nazariy yondashuvlar, dasturlar mazmunida maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalar imkoniyatlari hamda bolalar bilimining psixologik tuzilishini hisobga olib turlicha hal etiladi.

Bolani maktabga aqliy tarbiyalashda bolalar bilimlarining asosiy mazmunini atrof dunyo haqidagi xilma-xil tasavvurlarining keng doirasi va ayrim elementar tushunchalar tashkil qiladi. Voqelikning turli sohalari haqidagi tasavvurlarning umumiy tizimi bolaga dunyoda to'g'ri yo'l topa bilishi va umumiy rivojlanishining zarur darajasini ta'minlaydi. Busiz zamonaviy boshlang'ich ta'lim mazmunini egallab bo'lmaydi.

Maktabda o'quvchilar bilimlarining mazmunini yangi darajaga ko'tariladi. Voqelikning turli sohalariga oid bilimlarni yanada kengaytirish va chuquqlashtirish jarayoni faol sodir bo'ladi, ayni shu vaqtda o'quvchilar oldiga bilimlarini nazariy nuqtai-nazardan anglash masalasi ko'ndalang qo'yiladi.

O'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish maktab ta'limiy ishida markaziy o'rinni egallaydi.

Maktabgacha yillarda boshlangan bolalarning dunyo haqidagi bilimlarini tabaqalashtirish 1- sinfdan boshlab fanni o'tishda, fan asoslarini maqsadli o'rganishda yorqin ifodalanib boradi.

Bilimlarni kengaytirish, chuquqlashtirish, sistemalashtirish hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish bo'yicha ish xuddi mana shu darajada olib boriladi.

Bolalar bog'chasi va maktab izchilligi o'qitish metodi va shakllarida ham aks etadi. O'qitish metodlaridagi izchillikning sharti ularni bolalarning bilim, malaka va ko'nikmlarini ongli, mustahkam egallashlari, bolalarni maktabda ham, bolalar bog'chasida ham aqliy qobiliyatlarini va ijodiy faolliklarini rivojlantirishga yo'llanganligining birligidir. Bolalar bog'chasida va maktabning boshlang'ich sinflarda o'qitishning ko'pgina aynan bir xil metodlardan foydalaniladi.

Bolalar bog'chasida qo'llaniladigan o'qitish metodi va usullari bolalarning keng aqliy hamda ma'naviy - irodaviy rivojlanishlariga yordam beradi va shu orqali ularning yangi mazmunini egallashga darsga o'qituvchi bilan murakkabroq o'zaro aloqa shakllariga tayyorgarliklarini ta'minlaydi. Bolalar bog'chasidagi mashg'ulotlarda tarbiyachining bolalarni bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik usullaridagi bu istiqbollilik bolalar bog'chasi va maktab ta'lim metodlaridagi izchillik asosini tashkil qiladi.

Maktabdagi dars va bolalar bog'chasidagi mashg'ulot bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega, ammo shu bilan birga uyushtirilgan ta'limning asosiy shakllari sifatida ulargagina xos bo'lgan ichki umumiy xususiyatlar majmuiga egadir. Mashg'ulot va darsning mazmunining dasturlashgan aniq tashkiliy - vaqt jihatidan cheklanganlik, psixologning yetakchi roli, ilmiy asoslangan o'qitish metodi va usullardan foydalanish va shu kabi umumiy xususiyatlari ta'lim shakllaridagi izchillik uchun zamin yaratadi. Bolalar bog'chasidagi mashg'ulotlarda o'qitish jarayonida bolalarda o'quv faoliyatning elementlari tarkib toptiriladi, o'z hatti - harakatini ixtiyoriy boshqarish qobiliyati, maqsadga yo'llangan aqliy ish odati rivojlantiriladi. Bularning barchasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani maktab ta'limiga tayyorligi sharoitlariga faol kirishib ketishga tayyorlaydi.

Shunday qilib, bolalar bog'chasi va maktabda ta'lim - tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik maktabgacha va kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bosqichda bola shaxsini to'xtovsiz, bir butun aqliy rivojlantirishni amalga oshirishni ta'minlaydi.

1.3. Bolani maktabda o'qishiga axloqiy – irodali tayyorlashning psixologik asaslari.

Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga aqliy tayyorlik - bolalar bog'chasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga berilgan ta'lim va tarbiyaning muhim yakunidir. U maktab bolaga qo'yadigan talablar majmui orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi.

Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabatining o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o'rnini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin o'yin faoliyatidan farqli o'laroq, endi ta'lim majburiy bo'ladi va birinchi sinf o'quvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab qilinadi. Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o'zgaradi, erkin o'yinlar vaqti qisqaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomligiga talablar jiddiy ravishda ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalikka nisbatan o'quvchining o'z xatti-harakati, majburiyatlarini bajarishiga shaxsiy ma'suliyati ancha-muncha ortadi.

O'quvchining yangi holati uning shaxsining alohida ma'naviy yo'llanganligini yaratadi. Bola o'qishni butun mamlakat oldida javobgar bo'lgan o'z burchi, kishilarning mehnat hayotidagi ishtiroki tarzida anglay boshlaydi. Bola o'quvchi bo'lganidan so'ng jamiyatda maktabgacha tarbiya yoshidagiga nisbatan sifat jihatdan yangi o'rinni egallaydi.

Zamonamizning o'ziga xos xususiyati maktab ta'limi mazmunini doimo takomillashtirib borilishidir. Zamonaviy maktab 1-sinfga keluvchi o'quvchidan qandaydir maxsus bilim va ko'nikmalarni emas, balki ilgarigi yillarga nisbatan

aqliy faoliyatning murakkabroq shakllarini, axloqiy-irodaviy sifatlarning yuksakroq rivojlangan darajasini, o'z xatti-harakatini boshqarish qobiliyatini, katta ishchanlik qobiliyatini talab qiladi. Bolalar bog'chasining vazifasi ta'lim-tarbiyaviy ishning butun sistemasi bilan bolalarda zamonaviy maktab ta'limi talablariga to'liqroq muvofiq keluvchi maktabda o'qishga tayyorlikni tarkib toptirishdir. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V. Zaparajets, L.A. Venger, G.M. Lyamina, G.G. Petrochenko, T.V. Taruntayeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarda: maktabga o'qishga "umumiy, psixologik tayyorlik" va "maxsus tayyorlik" tarzida ko'rib chiqiladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolalar bog'chasining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishining muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabga umumiy tayyorlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, irodaviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materiallarini ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Psixologik tayyorlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai-nazaridan 1-sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvaffaqiyatli jamlaydi. **Maktab ta'limiga psixologik tayyorlik** bolaning o'qishga intilishi, o'quvchi bilish ishtiyoqida bilish faoliyati va tafakkurning yetarlicha yuqori darajasi, bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi, iroda

va ijtimoiy rivojlanishining muayyan darajasida namoyon bo'luvchi asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish, maktabda o'quv materialini ongli, faol egallash, keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi.

Bolaning maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga, umumiy, psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarni o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Bolalar bog'chasida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'takaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga, kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi sistemasiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi kerak. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak.

Bolaning maktabda o'qishga umumiy tayyorgarligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari ma'naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni faol egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni axloqiy asosda qorishiga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Maktabni axloqiy-irodaviy tayyorlik mazmuni o'quvchi tutgan o'rindan kelib chiquvchi bola shaxsi hamda xulqiga qo'yiladigan talablarga ko'ra aniqlanadi. Bu talablar maktabga o'qishning dastlabki kunlaridanoq o'quvchi oldiga o'quv majburiyatlarini mustaqil va ma'suliyatni his etgan holda bajarish tartibli va intizomli bo'lish, o'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish, o'qituvchi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda madaniy xulq

qoidalariga rioya qilish, maktab anjomlariga tartibli va ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishni ko'ngdalang qo'yadi. Bu yuksak talablarni bajarishga tayyorlash oldindan bolalar bog'chasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan davomli, maqsadga yo'llangan tarbiyaviy ish jarayonida amalga oshiriladi.

Axloqiy-irodaviy tayyorlik katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi davomida, rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, dafatan asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'laroq oxirigacha bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqdir. Bo'lajak o'quvchi xulq-atvoridagi ixtiyorlikning rivojlanish asosini maktabgacha tarbiya yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablari, o'zaro bo'ysinuvchilari tashkil qiladi. Sabablarning o'zaro bo'ysunganligi katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ushbu daqiqadagi o'z ishtiyoqlarini ma'naviy ahamiyatli maqsadlar yo'lida yengish uchun irodaviy, ongli intilishlariga aloqadordir. Tabiiyki, maktabgacha tarbiya yoshida bolaning xulq-atvori ixtiyorlikning yuqori darajasi bilan ajralib turmaydi, ammo bu davrda maktabdagi yangi xulq-atvor turiga o'tishni ta'minlaydigan ixtiyoriy xulq-atvorning tarkib topishi muhimdir.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning qaror topishida, shuningdek, katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi **mustaqillik**, **uyushganlik** va **intizomlilik** kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada mustaqillikni muvaffaqiyatli shakllanishining dalolatli tarbiyachining eslatish va ko'magisiz xulq-atvor qoidalarini bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to'g'ri odatiy usullaridan foydalanish, yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir. Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvordagi uyushganlik va intizomlilik bola xulq-atvordagi

maqsadga yo'llanganlikda, o'z faoliyatini bolalar bog'chasida qabul qilingan qoidalariga muvofiq ongli tashkil eta bilishda, faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o'z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish, o'z xatti-harkatlari uchun shaxsiy ma'suliyatni his qilishda o'z ifodasini topadi. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar xulq-atvoridagi mazkur xususiyatlarning mavjudligi maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikni shakllantirishning isboti xizmatini o'taydi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa bir muhim tarkibiy qismi **bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o'zaro munosabatlarini qoidalariga muvofiq tashkil eta bilishidir.** Tajribaning ko'rsatishicha, maktabdagi o'qish sharoitlariga moslashish oldingi yillarda bolalarda "jamoachilik" sifatlari: do'stlarga nisbatan xayrixoh, hurmat bilan munosabatda bo'lish, tashkilotchilik ko'nikmalari, xushmuomalalik, g'amxo'rlik bildirish, o'zaro yordamga hozirlikning qanchalik muvaffaqiyatli shakllantirilganligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Bola xulq-atvorida jamoachilik xislatlarini bunday majmuining mavjudligi uni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining ko'rsatkichi bo'la oladi va yangi jamoada tengqurlari bilan muomalada ko'tarinki ijobiy ruhni yuzaga keltiradi. Maktabda bolaning o'qituvchi bilan o'zaro munosabati ham ishga oid yangi asosda tashkil topadi. O'qituvchining bahosi o'quvchi bilimi va uni o'quv majburiyatlarini bajarish sifatining xolis mezoniga aylanadi. O'qituvchi bilan o'zaro munosabatlarining yangi uslubini egallashni maktabdagi ta'lim sharoitlaridagina yo'lga qo'yish mumkin. Shunday bo'lsada, maktabgacha tarbiya yoshida tarbiyalangan katta yoshlining talabini so'zsiz bajarish, uni hurmat qilish odati, katta yoshliga nisbatan madaniy xulq-atvor qoidalarini bilish va bajarish o'quvchilarning pedagog bilan o'zaro munosabatlarining yangi uslubini "qabul qilish" va maktab sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishning zarur axloqiy asosini tashkil qiladi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlik, shuningdek, **axloqiy hissiyot bola ongi** rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi. Bu o'rinda eng ibratlisi

bolalarning axloqiy xulq-atvorining ijtimoiy ahamiyatini tushunishlari, ularda o'z xatti-harakatlarini mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantirish, ma'suliyat, haqgo'ylik, insoniylik va fuqarolik hissiyotlari elementlarini shakllantirishdir. Rivojlanayotgan axloqiy hissiyotlar va axloqiy o'zini-o'zi anglash elementlari bola tomonidan o'quvchining yangi ijtimoiy-psixologik mavqeini ko'tarinki ruh bilan "qabul qilinishini", o'quv majburiyatlarini bajarishning muhimligini tushunilishini ta'minlaydi. Bular o'quvchilarda keyinchalik o'z o'quv mehnatlari uchun o'z yaqinlari va butun mamlakat oldida shaxsiy ma'suliyat hissiyotini uyg'otishda asos bo'ladi.

Axloqiy-irodaviy tayyorlik tarkibiga maktabgacha tarbiya yoshidagi **bolaning mehnatga munosabatini** ifodalovchi sifatlar majmui ham kiradi. Bu mehnat qilish ishtiyoqi, yaxshi va tartibli bajarilgan ishdan qoniqish hissiyoti, atrofdagilar mehnatiga hurmat, zarur mehnat malakalarini egallashdir. Bo'lajak o'quvchi uchun o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati malakalari tartibli mustaqil kiyinish, o'z narsalari, o'quv anjomlari holatini kuzatib borish, kiyim, poyabzaldagi ayrim nosozlikni chetdan ogohlantirishsiz bartaraf qilish ko'nikmasi (tugmachani tikish, dastro'molni yuvish, oyoq kiyimni tozalash va shu kabilar) alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchini o'qitishda u bolalar bog'chasida egallagan birgalikdagi mehnat malakalari (ishni rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, o'z harkatlarini o'rtoqlari bilan kelishish, ishni oxiriga yetkazish) katta o'rin egallaydi. Maktabgacha tarbiya yoshida tarbiyalangan mehnatga hurmatni, o'quv ishi va tengqurlari ishiga hurmatni, ularga yordam ko'rsatish hamda ularni qo'llab-quvatlashga intilishni shakllantirish uchun asos bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning maktabga o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorligi uni maktabgacha yillarda axloqiy-irodaviy rivojlantirishning muayyan yakuni sifatida namoyon bo'ladi. U maktab ta'limi nuqtai nazaridan bola shaxsi va xulq-atvorining o'z majmuiga ko'ra bolaning maktab sharoitlariga moslashishi o'z majburiyatlarini ma'suliyatli bajarish, o'qituvchi va o'quvchilarga nisbatan axloqiy munosabatni shakllantirish uchun zarur zaminni tashkil qiluvchi eng

muhim xislatlarni qamrab oladi. Axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabda o'qishda **aqliy** va jismoniy tayyorligi bilan uzviy aloqadordir.

Bolalarni maktabga **aqliy tayyorligining** ahamiyati, o'quvchi faoliyatining yetakchi turi - o'quvchilardan jiddiy aqliy mehnatni aqliy qobiliyat va bilish faoliyatlarini talab qiluvchi o'qitishdan kelib chiqadi. Maktabga aqliy tayyorlik bir necha o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi.

Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof dunyo haqida yetarlicha keng bilim boyligining mavjud bo'lishidir. Bilimlarning bu fondi o'qituvchi o'z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Maktabga kirayotgan bolalarning bilimlari yetarli darajada tabaqalashtirilgan bo'ishi kerak. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola voqelikning nisbatan yirik sohalari ham (jonli va jonsiz tabiat inson faoliyati va munosabatlarning turli sohalari, narsalar olami va shu kabilarni) narsa, hodisa va o'z faoliyatining ayrim tomonlarini ham farqlay bilishi kerak.

Bolani maktabga aqliy tayyorligida egallagan bilimlarining sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarning aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchalar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni (funksional, makon va zamon munosabatlari sabab-oqibat va shu kabilarni) aks ettira bilish qobiliyatidir.

Bolani maktabga aqliy tayyorligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir.

Bu o'rinda, birinchidan, bilish jarayonlarining o'sib boruvchi ixtiyorligi: materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qo'lish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar; ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va

takror ifodalashning tez va aniqligi; uchinchidan, bolada atrof dunyoni bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologlar (L.I. Bojovich, L.S. Slavina, N.G. Morozova, A.A. Lyublinskaya, L.A. Venger) ta'kidlaganlaridek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bilim olishga ishtiyoqni, qiziqishni, o'qishga va maktab qoidalarini bajarishga istakni tarbiyalash, maktabga ijobiy munosabatni, kitobga qiziqishni tarkib toptirish, o'quvchilarda barqaror o'quv qiziqishlari va maktabdagi o'quv ishiga mas'uliyatli munosabatni hosil qilishning muhim zamini hisoblanadi.

Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchini tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar bog'chasining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda tafakkur faoliyatining narsalarni ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalardagi asosiy aloqa, bog'liqlik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'quvchilarda aqliy faoliyatining elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatini mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Shuni qayd etish lozimki, bilish faoliyatining aytib o'tilgan xususiyatlari ko'p holatda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda dastlabki shakllanish bosqichida bo'ladi; ularning to'liq rivojlantirish maktabdagi ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ammo o'z majmuida ular bo'lajak o'quvchi tomonidan maktabdagi o'quv materialini ongli va faol o'zlashtirilishi uchun zamin xizmatini o'taydi.

Maktabga aqliy tayyorlik, shuningdek bolalar tomonidan o'quv faoliyati elementlarini egallab olinishini ham o'z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni, ishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak. Bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlashda ularda o'z faoliyati va xulq-atvorlarini tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan ma'lum talab hamda qoidalarga ongli bo'ysundirish ko'nikmasini tarkib toptirish alohida ahamiyat kasb etadi. Nutqni qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolani maktabga aqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug'atning boyligi, o'z fikrini mantiqiy grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi - bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Aqliy tayyorlik tarkbiga, shuningdek, savodning boshlang'ich asoslari oddiy matematik tasavvurlar, ona tili sohasidagi yetarlicha keng bilim, ko'nikma va malakalar doirasi ham kiradi. Bu bilim ko'nikma va malakalar bolalarni 1-sinfidagi tegishli o'quv fanlarini egallashlari uchun tayyorliklarini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, maktabdagi ta'lim uchun "maxsus" bilim, ko'nikma va malakalarning ahamiyati ko'p jihatdan ular qanday asosda tashkil etilganligi va qanchalik to'g'ri shakllantirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'pgina tadqiqotchilar qayd etishicha (A.V. Zaporozets, A.M. Leushina, D.B. Elkonin, L.Ye. Jurova, N.I. Nepomnyashaya va boshqalar) maktabgacha muassasalarda savod hamda matematikani ilk bor o'qitilishi bolalarda miqdor va til tovushlari olamida tushunishni tarkib toptirib shu orqali fanni o'qitishga o'tish uchun zamin yaratishi kerak.

Shunday qilib, maktabdagi o'qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqi rivojlanishning ko'pgina o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi

anglangan sistemalashtirilgan tasavvurlar hamda elementar tasavvurlar, nutq va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK KO'RSATGICHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

2.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirishda jismoniy rivojlanishining ijtimoiy-psixologik ko'rsatgichlari.

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi - bolalar tanasidagi barcha a'zolarini sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdir. Bu g'oya azal-azaldan otabobolarimiz ma'naviyatida aks etib kelmoqda. Jumladan xalq ijodida, "Alpomish", "Go'r o'g'li" kabi dostonlarda ham ifodasini topgan.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, va ilm ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badanni tarbiya qilish zarur. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz vujud lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo'l qo'yurlar. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ngila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib astarini yuvib ovora bo'lmak kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradir. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog'lom bir vujud kerakdur".

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning aqliy, axloqiy va jismoniy kamoloti kishilik tarixi taraqqiyotining barcha jabhalarida ulug'langan, qadrlangan.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir.

Shu sababli ham kishilik jamiyatning eng ibtidoiy holatidan hozirgi kunimizga qadar jismoniy tarbiya avlodlar kamolotini ta'minlovchi vosita deb hisoblangan. Demak o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy barkamolligini ta'minlash faqat ota-ona maktabining ishigina bo'lib qolmasdan, balki davlat ahamiyatiga molik ish hamdir.

Jismoniy tarbiyaga bo'lgan e'tibor, g'amxo'rlikning kun sayin oshib borishi fikrimizning yorqin dalilidir. Ma'lumki, jismoniy tarbiya yoshlarni tarbiyalashning biologik omillariga, sharoitlaridan kelib chiquvchi biologik tabiatiga asoslanadi. Jismoniy tarbiya mazmuni jismoniy kamolot, jismoniy tarbiya madaniyati sport ishlari jismoniy ma'lumot tushunchalarida o'z ifodasini topadi.

Jismoniy kamolot yosh avlod ichki a'zolarinig o'zgarishi, o'sishidir. Birinchi navbatda yurak va o'pka, shuningdek nerv va harakat tizimi, tana shaklining o'zgarishi, teri muskul tizimi og'irligi tananing mukammal rivojlanishidir.

1. Harakatning asosiy turlarini rivojlantirish:

- yurish va yugurishning barcha turlarini to'g'ri bajarish; shart-sharoitga muvofiq ulardan foydalanish;

- sakrash, irg'itish, tirmashib chiqishning barcha turlarini to'g'ri bajarish;

- yumshoq joyda 40 sm gacha balandlikka sakrash; 40 sm balandlikdan yerga yengil tushish; joydan turib 70 sm dan kam bo'lmagan uzunlikka sakrash; 100m masofani yugurib o'tish; yugurib kelib, 30 sm balandlikka sakrash; kalta va uzun arg'imchi (skakalka)da turli usullarda sakrash; ichi to'ldirilgan (og'irligi 1 kg) koptokni oshirib tashlash; predmetni turli vaziyatlardan turib otish, 4-5 m masofadagi vertikal va gorizontal nishonlarga tushirish;

- narsalarni o'ng va chap qo'l bilan 5 - 12m masofaga irg'itish, narsani harakatlanayotgan nishonga irg'itish;

- 2-3 doira yurib aylanib, 3-4 qatorga safni o'zgartirib tizilish, "birinchi-ikkinchi" hisob - sanog'idan keyin 2 qatorga tizilish, harakat, davomida oraliq masofani saqlash;

- turli xil dastlabki holatlardan turib jismoniy mashqlarni aniq, ritmik, ko'rsatilgan maromda, musiqaga mos, og'zaki ko'rsatmalarda aytilganday bajarish;

- gavgani to'g'ri tutish;

- velosipedda, o'zi yurarda, rolikli konkilarda yurish;

- sport o'yinlari unsurlari ishtirok etadigan o'yinlarda (voleybol, futbol, xokkey, badminton, stol tennisi) faol ishtirok etish, 15m.ga erkin suzish.

2. Tana qismidagi mushaklarni rivojlantirish:

- qo'l panjasi va barmoqlar harakatchanligini ta'minlash (barmoqlarni yengil siqish, yozish), barmoqlarni o'ynatish (barmoqlarda o'yin ko'rsatish, qo'l barmoqlari soyasida tamosha ko'rsatish va h.k);

- tashqi muhit o'zgarishlariga bardoshlilik (kasalliklarga tegishli qarshilik ko'rsatish, ularning nisbatan yengil va qisqa muddatda asoratlarsiz o'tishi (chiniqishi);

- miriqib uyquga ketish va oromli uyqu;

-yaxshi ishtaha (ayrim ovqat turlariga salbiy munosabatlarsiz);

-o'zining jismoniy qiyofasi va sog'ligi haqida tasavvurni shakllantirish, sog'lom turmush tarziga erishish (madaniy-gigiyena malakasini rivojlantirish, har kuni ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarishga odatlantirish, bu hamda boshqa malakalar ahamiyatini tushunish);

-antrometrik ko'rsatkichlarning (bo'yi, vazni, boshining doirasi, ko'krak kengligi) yosh ko'rsatkichi standartlariga muvofiq kelishi.

2.2. Shaxsiy psixologik ko'rsatgichlari.

1. Tevarak- atrofni tushunish, bilish; u yerda yashashini (mamlakat, shahar, qishloq, uy manzili, diqqatga sazovor joylar va boshqalar) bilish;

zamon va makon haqida tasavvurni shakllantirish va ularni tushuna bilish (bir yil, bir necha oy, hafta, necha kun, soat necha, chap, o'ng va hokazo);

atrof-muhit, tabiat haqida tasavvurga ega bo'lish (atrofdagi tarqalgan o'simlik va hayvon olami turlari - uy va yovvoyi hayvonlar, qushlar, o'simliklar, baliqlar, hasharotlar nomlari, ularning oziqlanishi, hayoti va boshqalar);

jonli va jonsiz tabiat hodisalarining sabab va oqibatli bog'lanishlari, o'zaro mutanosibligini bilish (nega qor yog'adi, qor nima uchun qo'lda eriydi, qishda o'simliklar nega bargsiz bo'ladi); insonning tabiatga ta'siri haqida tasavvurni shakllantirish, bunday ta'sirning natijalari (tabiatga qiziqish va muhabbatni shakllantirish, tabiatning holati, unga inson hayotining manbai sifatida ehtiyotkor munosabat va shu kabi oddiy ekologik tushunchalar);

tevarak-atrofdagi voqeilikka narsalarning nomlarini, ahamiyatini, ulardan foydalanishni, ular nimadan qilinganligi bilish (turmush, mehnat qurollari, transport, mevalar, sabzavotlar va boshqalar);

o'z oilasining tarixi to'g'risida (oilasi avval qayerda yashagan, buvasi va buvisi nima bilan shug'ullanishgan, ularning hayoti biznikidan nimasi bilan farq qiladi va h.k), ko'chalar, tuman, shaharlar, yirik tarixiy voqealar hamda davrlar (Amir Temur davri, Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati va boshqalar), o'z mamlakatining davlat ramzlari, davlat bayramlari va o'z xalqining urf-odatlari hamda an'analari va boshqalar haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish;

2. Bolaning ijtimoiy jihatdan rivojlanish darajasi; o'z tashabbusi bilan, shuningdek, do'stlari tashabbusu bilan tanish va notanish bo'lgan katta yoshdagi kishilar, o'zidan kichik yoshdagilar bilan erkin muomala qila olish;

umuminsoniy axloq-odob qoidalarini o'zlashtirish ("Nima yaxshi-yu nima yomon" tushunchalarini shakllantirish, "Mumkin va mumkin emas", "Xohlayman va burchliman" tushunchalarini ajrata bilish, vaziyat taqazosiga muvofiq axloq-odob doirasiga muomala va kayfiyatni tanlay bilish);

fe'l-atvorning ijobiy xususiyatlarini qaror toptirish (kengfe'llik, e'tibor, g'amxo'rlik, o'zaro yordam, mehribonlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, narsalarga, inson mehnati mahsullariga ehtiyotkor munosabat, qadriyatlarga hurmat va ijobiy munosabat, estetik ong asoslarini shakllantirish, go'zallika, tabiat

ajoyibotlariga, adabiy, badiiy, musiqiy asarlarga, amaliy san'at namunalariga va boshqalarga qiziqishni rivojlantirish);

o'zini erkin boshqara bilish (maqsad sari harakat qilish, bola uchun juda qiziqarli bo'lmagan holatlarda ham diqqat - e'tiborni yig'a olish orqali mas'uliyat va irodani chiniqtirish). O'z sa'y - harakatlarida o'zini erkin his etgan bola harakatlari oqibatini oldindan ko'ra-bilib, o'zini cheklash zarurligini tushunishi, turli hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan sabab-oqibatning bog'liqligini anglashi, ya'ni, unda me'yori tuyg'usi tarbiyalanmog'i, xavfsizlik maqsadi uchun zarur bo'ladigan ehtiyotkorlik va o'ylab ish qilishni bilmog'i lozim; mustaqillikni rivojlantirish (o'z shaxsiy faoliyatini tashkil etish uchun turli vositalarni: o'yin, tomosha ko'rsatish, tasvirlash, qurish-yasash, o'yin faoliyatining turli - turlari jarayonida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal eta bilish);

o'zini - o'zi anglashni jinsidan kelib chiqqan holda (o'g'il bola, qiz bola) shakllantirish, o'z imkoniyatlarini o'zi baholay bilishi, katta yoshdagilar, tengdoshlari o'zidan yosh jihatdan kichiklar davrasida o'z o'rnini anglay bilish, boshqa odamni tushunish, uning qiziqishlarini, ehtiyojlarini, istaklarini hurmat qilish, uning kayfiyatini, uning oldidagi muammolarni ko'ra bilish, o'z xatti- harakatlarini boshqa odam o'rnida turib baholay olish. Bolaning o'z-o'zini anglashidagi muhim jihat uning o'z qadr - qimmatini his etish, o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirish hisoblanadi. Shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bola uchun o'z shaxsiga ortiqcha baho berish tabiiy va qonuniy holdir, bu uning uchun o'ziga xos "shaxsiy himoya", o'z kechinmalariga quloq tutish, o'zining hayajonli holatlarini ("men xursandman", "men roziman", "menga yaxshi", "men xafa bo'ldim" va hokazo) tushunish, boshqa birovga nisbatan: "Yashavor", "Zo'r" kabi so'zlarni ishlatish hisoblanadi.

2.3. Bilish jarayonlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari

Fikrlashni rivojlantirish (obrazli, mantiqiy, ijodiy, abstrakt).

a) nutqiy intellekt (og'zaki fikrlash).

O'zaro aloqa nutqini rivojlantirish:

atrofdagilar bilan muomala qila bilish, o'ziga qarata aytilgan gapni tushunish, so'zlashishga kirishish, aniq qilib gapirish, savollarga javob qaytarish (dialog, nutq);

o'zidagi so'z boyligidan (2-3 ming so'z) faol foydalana bilish, eshitganini aytib bera olish, ko'rganini gapirib berish, suratlarga qarab syujet bo'yicha hikoya qilib berish, asosiy tayanch so'zlar bo'yicha hikoya tuzish va boshqalar (monolog nutq);

nutqning sifat ko'rsatkichlari; nutqning ifodaliligi, nutq tovushining barchasini aniq va to'g'ri ifodalanishi, tilning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalanish;

b) amaliy intellektni rivojlantirish (o'g'zaki fikrlashni emas, balki faoliyatning turli xillarida amaliy qobiliyatni rivojlantirish):

- o'yin faoliyatini rivojlantirish: o'zaro o'yinlarda faol qatnashish (syujetli rol o'ynaladigan, drammati o'yinlar, qoidali o'yinlar);

- bolalar bilan ijodiy mustaqil o'yinlarga doir maqsadlarni kelishib olishni bilish;

- rollarni taqsimlash, o'yinlarning qoidalariga bo'ysunish;

- alohida o'yinlarni tashkil qilish, o'yin uchun kerakli materiallar va zarur narsalarni tanlab olish;

- o'yinda muqobil narsalarni ishlatish;

- mehnat faoliyatini rivojlantirish;

- bolalarda "Men o'zim qilaman" degan muayyan qat'iyatlilikni shakllantirish (ayrim mehnat malakasi va qobiliyatiga ega bo'lish, o'z-o'ziga xizmat qilish malakasi, turmush va tabiatdagi tartibning buzilishini payqash, o'yinchoqlarni tuzatish, bog'lab mahkamlash, idishlarni yuvish, uyda xo'jalik ishlarida qarashish, dasturxonni tuzatish, oshxona jihozlaridan foydalana bilish, o'z ust-boshini tuzatish va boshqalar);

- boshlagan ishini oxiriga yetkazishga odatlantirish (ya'ni, mehnatning samarasi va foydasini anglab yetish);

-jamoada ishlay bilish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, faoliyat mazmunini boyitish va boshqalar;

- tasviriy faoliyatni rivojlantirish;

- tasviriy faoliyatning texnik malakalar majmuini va barcha turdagi texnologiyasini egallash (qalam, bo'yoq, mo'yqalam, qo'l, cho'p va hokazolar bilan rasm chizish, loydan, plastilindan va qog'ozdan, tabiat, materiallaridan, matodan va hokazolardan narsalar yasash); qaychidan foydalana bilish (simmetrik va simmetrik bo'lmagan shakllarni qirqish va boshqalar);

- musiqali - xoreografik qobiliyatni rivojlantirish; musiqa eshituvchi qobiliyatni rivojlantirish (tovushlarning to'g'ri yoki noto'g'ri taralayotganini tinglab, tovush o'zgarishlarini tinglash);

- musiqaga mos harakatda o'ziga nisbatan ishonch his etish (maqomga mos ravishda, musiqaga muvofiq tarzda harakat qila bilish);

- turli maqomdagi musiqaga ma'noli harakatlar bilan javob qaytarish;

- harakat va qiliqlarni mahorat bilan o'z o'rnida ishlata bilish;

- murakkab bo'lmagan qo'shiqlarni yakka ovozda va xorda ma'noli, jarangdor ovozda ijro etish;

- turli xil bolalar milliy musiqa chalish usullarini egallash;

- ertak, qisqa sahna ijrolarida obrazga kira olish va boshqalar;

1. Xotirani rivojlantirish:

- mexanik xotirani (eshitish) rivojlantirish: eshitishga qaratilgan vazifani tinglash va yodda saqlashni uddalash, ko'rganlarini so'z orqali yoki amalda ifodalash, ko'rsatish;

- ko'rish xotirasini rivojlantirish, ko'rganini yodda saqlash va uni so'z orqali yoki amalda ifodalash, ko'rsatish;

- fikriy xotirani (mantiqiy) rivojlantirish: ko'rganini yoki eshitganini, so'zmaso'z emas, balki uning asosiy mazmuni mohiyatini ifodalab berishni uddalash.

2. Tasavvurni (abstark fikrlash) rivojlantirish:

- fikrlab, aniq obrazlarga yoki narsalarga tayanmay, oddiy vaziyatlarni, harakatlar muntazamligini yoki turli xil faoliyatlarning pirovard natijalarini o'zida tasavvur eta bilish, faoliyat, harakat oqibatini oldindan tasavvur etishni uddalash.

3. Ijodkorlikni rivojlantirish:

- o'zining individual, takrorlanmas obrazni yaratish, faoliyatning barcha turlariga o'zining mazmunini olib kirish, ijodiy o'yinlar mazmunini boyitishni bilish, hikoyalar, ertaklar, topishmoqlar va hokazolarni o'ylab topish.

O'qish malakalarini va o'quv faoliyati shart - sharoitlarini shakllantirish (maktabga maxsus tayyorlash)da **quyidagilar muhim ahamiyatga ega**

1. Og'zaki savodxonlik darajasi:

. - so'zdagi barcha tovushlarni ketma-ket aytib, so'zning tovush tahlilini o'tkazish. Undosh va unli yumshoq va qattiq undoshlarni, sifatdoshlarni farqlash,

so'zdagi urg'ularni ajrata bilish, so'zni bo'g'inlarga ajratish, muayyan tovushlardan so'z tuzish;

- 3 - 4 so'zdan gap tuzish, oddiy gapni so'zlarga ajratish, so'zlarning ketma-ket kelishini uqtirish (birinchi so'zni, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi so'zlarni aytish), faol nutqda shu nutqning barcha asosiy qismlarini ishlatish (fe'l, sifat, son, olmosh, ravish, bog'lovchi old qo'shimcha va ergashtiruvchi old qo'shimcha);

2. Oddiy matematik malakani rivojlantirish:

- ikki kichik sondan iborat birinchi o'nlik son tarkibini bilish (5 - bu 1,1,1,1,1 yoki 2 va 3,4 va 1), birinchi o'nlikning har bir sonini chiqarish: oldindagi songa birni qo'shish orqali (7 bu 6+1 yoki 7 bu 8-1);

- sonlar: 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9;

- amallar: "+", "-", "=";

- o'tayotgan son nomi, haftadagi kunlarning kelish tartibi;

- 1 dan 20 gacha va 100 gacha sanashni bilish;

- 1 - 2 va 20 - 1 sonlarni boshidan oxirigacha hamda oxiridan boshiga qarab sanash;

- Shartli o'lchov yordamida uzunlikni o'lchash;

- Bir nechta uchburchak va to'rtburchaklardan shakllar hamda katta o'lchovdagi narsalar tuzish;

- Doirani, to'rtburchakni teng bo'lgan 2,4 bo'laklarga bo'lish, yaxlit narsalarning va bo'laklarning o'zaro muvofiq, mos ekanligini tushunish (yaxlitlik qancha katta bo'lsa, uning bo'laklari ham katta bo'ladi);

- O'lchayotgan narsa va uning o'lchovi orasi teskari proporsional ekanligini bilish;

- Oddiy geometrik shakllarni, doira, uchburchak, to'rtburchak, shar, kub, silindrlarni ajrata bilish.

O'quv faoliyatining dastlabki shart-sharoitlari:

- ko'rib tasavvur qilishni shakllantirish (narsalarni shakliga, katta-kichikligiga, bo'yiga, eniga, bir-biriga nisbatan makonda joylashishiga: tepada, pastda, o'ngda, qarab farqlash va qiyoslash);

- ko'rish analizi va sintezini rivojlantirish (sirtqi tomonidan o'xshash narsalardagi farqlarni va aksincha, turli narsalardan sirtqi ko'rinishiga ko'ra o'xshash tomonlarini topish);

- narsalarni (umumiy nom ostida mansubligiga, ishlatilishiga, shakli, rangi, katta-kichikligi, ta'limi va hokazolarga qarab) turkumlash, umumlashtira bilish;

- farqlay bilish (narsalarni farqlash, ahamiyatli tomoni, belgilari va ularning qismlarini ajratib ko'rsatish);

- faoliyatning barcha turlarida turli xil timsollar, belgilar, muvofiq jihatlardan foydalana bilish;

- izlanish faolligini rivojlantirish (yaxshisini, zarurini, kerakligini tanlab ola bilish);

- kuzatuvchanlikni (qiziquvchanlikni) rivojlantirish; kuzatish chog'ida qiziqishni yo'qotmaslik, kuzatilayotgan narsadagi muhim jihatni ko'ra bilish);

- sabab va oqibatning bog'liqligini tushunish (oldindan payqash, o'zining mulohazasini va xulosasini chiqarish), o'quv vazifalari mohiyatini tushunish;

- maktabga ruhan tayyorlash, maktabga, ilm olishga nisbatan ijobiy munosabat uyg'onishi yana ko'p o'qishi kerakligini, bilim olishga g'ayrat qilishi zarurligini, intilishini tushunishi lozim.

Bolalarning maktabga aqliy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar

1. Jismoniy rivojlanganlik darajasi

Maktab yoshiga yetgan bolalarning jismoniy jihatdan rivojlanganlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

- mustaqil tarzda jismoniy mashqlar bajara olish;
- buyruqqa (startga) asoslanib yugurish;
- xoda ustiga o'tirib oldinga siljish;
- narvon yordamida tepaga chiqish va pastga tushish;
- 5 sekund davomida arqonga osilib turish;
- arg'imchoq uchish;
- cheklangan sath va chiziq bo'ylab yurish;
- qiya qo'yilgan taxta ustidan yurib o'tish;

- bir oyoqda "qaldirg'och" bo'lib turish;

- oyoq uchlari bilan buyumlarni qisib ko'tarish, past tushirish va bir joydan ;
- boshqa joyga otish -

- joyda turib 15-20 marta sakrash;
- 70 sm uzunlikka sakrash;
- 30 sm balandlikdagi to'siqdan sakrab o'tish;
- to'xtamasdan 2-3 minut davomida yugurish;
- 100 m masofani to'xtamasdan yugurib o'tish;

- 10 m masofani emaklab o'tish;
- safda to'g'ri turish va safni buzmasdan yurish;
- saflanish va qayta saflana olish;
- musiqa ohangida mos holda harakat qilish;
- koptokni irg'itish va ilib olish;

- ilon izi shaklida yurish;
- to'p-to'p bo'lib, aylana bo'ylab yurish;
- chiniqtirish mashqlarini bajarish;

- Xalq o'yinlari - "Kim chaqqon"; Oq terakmi ko'k terak; "Avvalakam", "Quyoni-quyoni ne bo'ldi?", "Chittigul", "Bog'lam-bog'lam", "Kim oladi-yo shu gina-ni-yo", "Uchdi, chopdi, sakradi", "Qushning boshi", "Qoch bolam, qush keldi", "Kim chaqqon", "Tortishmachoq" kabi harakatli o'yinlarda ishtirok eta olishdan iborat.

2. Nutq va tafakkurining rivojlanganlik darajasi.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning nutq va tafakkurining rivojlanganlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

Nutqning rivojlanganligi va so'z boyligiga oid:

- tovush, so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz etish;
- 3000 tadan ortiq so'zni tushunish va bilish;
- Rasmga qarab gap tuzish;
- ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish;
- eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta so'zlab berish;
- ifodali nutqqa ega bo'lish;
- tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so'zlab berish;
- turli mavzudagi, kichik hajmdagi 6 ta she'ni yoddan aytish;

- ota-ona, tarbiyachi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular bo'yicha qisqacha hikoya tuzish;
- kattalar va o'rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etish;
- kattalar va o'rtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega bo'lish;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirishga oid:
 - o'z fikrini mustaqil, erkin bayon etish va xulosa chiqara olish;
 - mantiqiy tafakkur qilish malakalariga ega bo'lish;
 - tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, analogiya va boshq.)ni yoshiga mos rivojlantirish;
 - fikriy mushohada yuritish;
 - tevarak -atrofni to'g'ri idrok etish;
 - ta'limiy o'yinlar vositasida tafakkurni peshlash;
 - gul, daraxt turlarini rangiga, bargiga, mevasiga qarab farqlay bilish;
 - o'z fikrini, talab-ehhtiyojlarini so'z bilan ifodalay olish;
 - so'zlardan gap tuza olish;
 - o'z fikrini bayon etganda, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qila olish;
 - birinchi o'nlikning son tarkibi (alohida birliklardan) va 2,3,4,5,6,7,8,9,10 sonlarining o'zidan kichik bo'lgan ikki kichik sondan tarkib topganligini bilish;
 - birinchi o'nlikdagi har bir sonning qanday hosil bo'lishini bilish, buning uchun son qatoridagi avvalgi songa o'nlikni qo'shish va keyingi sondan o'nlikni ayira olish;
 - 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlarini hamda "+", "-", "=" ishoralarini bilish;
 - 1,3,5,10 so'mlik pullarni bilish;
 - O'tayotgan hafta kunlarining ketma - ketligi, kun qismlarini bilish;
 - 10 tagacha bo'lgan buyumlarni sanash, sanab ajrata olish;
 - Narsalar sonini raqam bilan muvofiqlashtira olish;

- 10 ichida yonma-yon sonlarni taqqoslay olish;
- Narsalarni kattaligi, uzunligi, kengligi, balandligi, yo'g'onligiga ko'ra taqqoslay olish;
- To'g'ri va egri chiziqlarni, uchburchaklar, to'rtburchaklarni bir-biridan farqlash va tasvirlash;
- Hozirgi zamon texnikasi, kompyuter haqida ilk tasavvurga ega bo'lish;
- Shaxsni o'rab turgan barcha narsalar tabiat ekanligini bilish;
- Mevali daraxtlar - olma, uzum, shaftoli, nok, olcha, gilos, o'rik, olxo'ri nomlarini bilish va ular haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Manzarali daraxtlar - tol, terak, archa, chinor haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Daraxt shoxlarini sindirish tabiatga zarar etkazish ekanligini anglash;
- Gullar - atirgul, boychechak, qoqigul, chinnigul, lola, lolaqizg'aldoq haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Sabzavot va poliz ekinlari - pomidor, bodring, kartoshka, piyoz, sabzi, karam, qovun-tarvuz, qovoqni va ularning nomlarini bilish;
- Xona o'simliklarini boshqa o'simliklardan farqlash;
- Uy hayvonlari - qo'y, sigir, ot, eshak, it, mushuk, echki; yovvoyi hayvonlar - bo'ri, tulki, ayiq; parrandalar - tovuq, xo'roz, o'rdak, g'oz; hasharotlar - chumoli, ninachi, ari, qo'ng'iz, kapalak nomlarini bilish va ular haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Qushlar - qaldirg'och, chumchuq, musicha, kabutar, bulbul, qarg'a, to'ti nomlarini bilish va ular haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Uy-ro'zg'or buyumlari - stol-stul, xontaxta, javon, divan, ko'rpa-to'shak, sandiq haqida tasavvurga ega bo'lish;

- Uyda qo'llaniladigan elektr jihozlari - elektr chiroq (lampochka), televizor, radio, magnitofon, dazmol haqida tasavvurga ega bo'lish;

- Transport vositalari - velosiped, avtomobil, avtobus, trolleybus, tramvay, metro, poyezd, samolyot haqida tasavvurga ega bo'lish;

- Tog', daryo, ko'l, bog', gulzor, paxtazor, ekin maydonlari, yaylov haqida tasavvurga ega bo'lish;

- Havo, suv, quyosh, shamol, bulut, yomg'ir, qor haqida yoshiga mos ravishda tasavvurga ega bo'lish;

- Yil fasllari nomini, ketma-ketligini bilishi va ulardagi tabiat o'zgarishlari haqida ilk tasavvurlarga ega bo'lish;

- Paxtadan ip, gazlama, kiyim-kechaklar tayyorlashini bilish;

- Kun va tunning farqini anglash;

- Kun qismlari - ertalab, peshin, kechqurunni farqlash;

2. Ma'naviy - madaniy yetuklik

Maktab yoshiga yetgan bolalarning ma'naviy-madaniy jihatdan yetukligiga qo'yiladigan minimal talablar:

- Ona Vatan - O'zbekiston haqida qisqacha so'zlab berish;

- O'zbekiston bayrog'i, gerbi, haqida fikr bildirish;

- Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hislari va milliy g'ururni yoshiga mos ravishda shakllanganligi;

- Xalqiga, Vataniga mehr va sadoqat hislarining shakllanganligi;

- Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolar haqida ilk tasavvurlarga ega bo'lish;

- To'g'ri salomlashish va xayrlashishni bilish;

- O'zidan kattalarga sizlab murojaat qilish;

- "labbay", "xo'p bo'ladi", "xush kelibsiz", "rahmat", "salomat bo'ling", "mumkinmi", "kechirasiz", "shirin tushlar ko'ring", "osh bo'lsin", "yaxshi borib keling", "marhamat" kabi so'z va iboralarni o'z o'rnida qo'llay bilish;

- Qo'lini ko'ksiga qo'yib iltifot ko'rsatish;

- Uyda, ko'chada, mehmonga borishda kiyadigan kiyimlarini farqlash va ularni o'z o'rnida kiyish;

- Shirin so'zli bo'lish va mehribonlik qila bilish;

- O'tirish va yurish qoidalarini bilish, ularga rioya qilish;

- Uyda, bog'chada, mehmonda, ko'chada o'zini qanday tutish kerakligini bilish va unga rioya qilish;

- Yaxshilik va yomonlikni farqlay bilish;

- Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat qilish kerakligini anglash va rioya qilish;

- O'rtoqlari bilan birga o'ynay olish;

- O'yin jarayonida muloqot qila olish va o'rtoqlarini ranjitmaslik zarurligini bilish;

- Hol-ahvol so'rashni bilish;

- Kattalar mehnatini qadrlash lozimligini bilish;
- O'ziga ishonish;

- Ojiz va kuchsizlarni himoya qilish zarurligini anglash;
- O'z-o'ziga xizmat qila olish;
- Uyda yoki bog'cha hovlisida yengil mehnatlarini bilish;
- Mehnat qilayotgan kattalarga ko'maklashish;
- Oshxona anjomlari - choynak, piyola, qoshiq, likopcha, pichoq kabilarning vazifasini bilish, yig'ishtirishda ularni joy-joyiga qo'yish;

- Oshxonada yengil yumushlarga yordam berish;

- Mehnatsevar bo'lish yaxshi odat ekanligini anglash;
- Mehnat qurollari - tasha, bolta, bolg'a, qaychi, ombir, tokqaychi, ketmon, belkurak, o'roq kabilarning vazifasini bilish;

- Tejamkorlik zarurligini bilish;

- O'zini ozoda tuta olish;
- To'g'ri yuvina olish;
- Sochiq, dastro'mol, sovun, tish yuvish pastasi va chotkasidan to'g'ri foydalana olish;

- Mustaqil ravishda sochini tarash, turmaklash (qiz bolalar) va orasta bo'lib yurish;
- Mustaqil ravishda tartibli kiyinish va yechina olish;
- Kiyim, o'yinchoq va xona anjomlarini o'z joyiga qo'yishni bilish;
- Ovqatlanish qoidalarini bilish va unga rioya qilish;

- Tasviriy san'at asarlaridan zavqlana olish.

Davlat talablari asosida tuzilgan "Uchinchi ming yillikning bolasi" dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari hamda o'zlari uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanamalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismoniy rivojlantirishga yordam beradigan turli-tuman o'yinchoqlar va ta'lim - tarbiya qurollari yaratildi.

Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish, yosh avlodni kamolotga yetkazishda bolalar uchun mo'ljallangan teleko'rsatuv va radio-eshittirishlarning faoliyati ham maqsadli yo'nalishda olib boriladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda ota-onalar va tarbiyachilar uchun muntazam ko'rsatuv va eshittirishlar olib boriladi, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladigan turli-tuman filmlar yaratiladi. Davlat talablarini hayotga joriy etishni targ'ibot qilishda matbuotdan keng foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risidagi Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6 - 7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'lim mukammal o'zlashtirishlariga, mustaqil

O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

X U L O S A

Maktabga bolalarni aqliy tayyorlashda ta'limiy - tarbiyaviy ishni rejalashtirish psixologlar, pedagoglar: tarbiyachi, tarbiyachi - metodist, mudira faoliyatining muhim turlaridan biridir. Rejalashtirish ta'lim - tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalaniladigan vosita, ish, usul va metodlarini ko'rsatib, ta'lim - tarbiyaviy ish dasturini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogik bolalar bog'chasi ishini rejalashtirish mumkinligi va zarurligini ta'kidlab, bunda u inson shaxsini shakllanishida ijtimoiy omillar - muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqidagi asosiy qoidalarga tayanadi. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullari, ma'naviy va estetik baholarda va shu kabilar shaklida berilgan ijtimoiy - tarixiy tajribani bola tomonidan egallanilishi amalga oshiriladi. Tarbiyaning mazmuni uning maqsadi belgilaydi, demak u dastur tabiatini kasb etadi va rejalashtirishi ham mumkin.

Tarbiyada yetakchi o'rin katta yoshli - o'qituvchiga, tarbiyachiga tegishlidir. U bolalarning xilma-xil faoliyatlarini tashkil etadi va yo'lga soladi, o'qitish jarayonini amalga oshiradi. Faoliyatni rejalashtirishda pedagog bolalar rivoji va tarbiyasining umumiy qonuniyatlari hamda tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishga tayanadi. Bolani tarbiyalash va rivojlantirish qonunlari obyektivdir, ular bolalar bilan olib boriladigan ta'lim - tarbiyaviy ish mazmunini ham izchilligini ham aniqlashda asos xizmatini o'taydi.

Bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayon maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish ularni jismoniy, aqliy, ma'naviy va estetik rivojlantirish masalalarini amalga oshirishga yo'llangan. Bu vazifalarni ro'yobga chiqarish pedagogik jarayonda bolalar faoliyatining xilma - xil turlari - o'yin, turmush, mehnat, o'quv, oddiy badiiy va hokazo faoliyatlari orqali ta'minlanadi. Ular maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini

shakllantiruvchi vosita xizmatini o'taydi va ayni bir vaqtda bolalar egallaydigan mazmun ham hisoblanadi.

Psixologik jarayonning tashkil etilishi ilk maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xos bo'lgan umumiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini hisobga olishi kerak. U har bir yosh guruhidagi shuningdek, butun bolalar bog'chasidagi psixologik pedagogik jarayonni o'zgaruvchanligini ham belgilaydi.

Bolalar bog'chasidagi psixologik-pedagogik jarayon bolalar hayotini tashkil etishning o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Bolalarni uyushtirishning umumiy va yakka shakllari o'zgaruvchanligi va xilma - xil birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonni bir buftin sifatida va har bir yosh guruhida rejalashtirish lozim degan xulosa kelib chiqadi. Rejalashtirishning maqsadi - "Bolalar bog'chasi ta'lim - tarbiya dasturi" ning bajarilishini ta'minlashdir.

Reja tarbiya va ta'limiy ishlar vazifalarini, faoliyat va ularni tashkiliy usullarining asosiy turlarini, qo'yilgan masalalarni ma'lum vaqt orasida hal etish vositalarini belgilaydi. Unda ta'lim va tarbiyani turli vosita, shakl va metodlarining aloqasi va o'zaro ta'sir ko'rsatish tabiati, bolalarning tarbiyachi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatini ularning mustaqil faoliyatlari, jamoa, hamkorlikdagi, yakka faoliyat bilan biriktirish va shu kabilar nazarda tutiladi. Shunday qilib, ***psixologik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejalashtirishda yetakchi hisoblanadi.***

Rejalashtirishning ikkinchi vazifasi - ***vaqt hisobida psixologik jarayonni harakati va rivojlanishini ta'minlash:*** bolalar bilan ishlash mazmuni, shakli va metodlarini murakkablashtirish, ta'lim - tarbiyaviy jarayonda bolalar va bolalar jamoasining aqliy rivojlanishiga ko'ra pedagogik jarayonning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish bolalarni va ularning faoliyat turlarini uyushtirish shakllarini biriktirishdan iborat.

Rejalashtirishning bu vazifalarini amalga oshirilishi psixologik-pedagogik jarayonda uyushganlik va rejalangan tabiatini kasb etadi, pedagoglarning ishlarini

maqsadga yo'llanganroq va natijaliroq qiladi, bolalarni har tomonlama tarbiyalanish va rivojlanishlarini ta'minlaydi.

psixologik jarayonni yaxlit tashkil etishga: bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifalarini aniqlashtirishga, bolalarning yoshlari va vazifalarga ko'ra psixologik ta'sir mazmuni va usullarini tanlashga;

bolalar hayoti, faoliyat tulari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo'llangan bo'lishi kerak. Rejada bolalar bilan ishlashning jamoa va yakka tartibdagi shakllari nazarda tutiladi.

T A V S I Y a L A R

MAKTAB TA'LIMIGA AQLIY TAYYORLIK HOLATINI O'RGANUVCHI SAVOLNOMA

T/R	Savolning qo'yilishi.	To'g'ri javob uchun ball.	Noto'g'ri javob uchun ball.
1	Qaysi hayvon katta ot yoki it	5	0
2	Kunduzi – yorug', kechqurun ...	5	0- 1
3	Osmon moviy, ko'k, yaproqlarning rangichi?	5	0
4	Qishda sovuq bo'ladi, bahorda, yozda, kuzdachi?	5	0- 2
5	Mashina yo'lda yuradi, samalyot osmonda(...), baliq suvda(...)	2	0
6	Toshkent shahar, boshqa shaharlarning nomini ayt.	3	0
7	Samolyot, vertolyot, paroxod, qayiq, jiguli, poezd. Shulardan erda, suvda, va osmonda yuruvchi transport vositalarini ajratib ber.	4	0- 1
8	Necha xil rangni bilasan.	5 ta rang 5 ta ball	0- 2
9	Sudralib yuruvchi, qanotli va suvda suzuvchi hayvonlar kaysilar: (qaldirg'och, baliq, ilon)	4	0- 1
10	Bitta gap tuz unda quyosh, osmon, maktab, daftar	5	0- 2

	so'zlari ishtirok etsin.		
11	Tog'da va bog'da nimalarni uchratish mumkin.	4	0- 2
12	Bolalar maktabda nima uchun o'qiydilar?	3	0- 1
13	Qishda dalalardan necha kg paxta terish mumkin?	3	0
14	Yozda necha marta qor bo'ron o'ynash mumkin?	2	0
15	Baliq bilan mushuk bir biridan qanday farq qiladi.	3	0-1
16	Qarama – qarshi so'zlarni top ? M: issiq – sovuq, kun..., past- ..., yaxshi -..., oson-..., uzun..., boy -...,	5	0-2
17	Cho'lda qanday mevali daraxtlar o'sadi?	3	0
18	Eqish va ishlash qanday farq qiladi, ya'ni odamlar nega o'qiydilar va nega ishlaydilar.	4	0-1
19	Baliq quruqlikda suzadimi (ha, yo'q)	2	0
20	Odil olimdan katta, Iskandar esa Odildan katta. Qaysi biri eng katta ?	3	0
21	Yo'lbars, it, qoplon, mushuk, kiyik. Bularning qaysi biri uy hayvonlari, qaysi biri yovvoyi?	3	0-1
22	Qaysi birining soyasi bo'lmaydi: daraxt, yo'l, terak, devor.	4	0
23	Bulbul, sigir, ot. Kaysi biri ma'raydi, qaysi biri sayraydi qaysi biri kishnaydi?	3	0-1
24	Do'st va dushman, qish va yoz kun va tun, katta va kichik, olam va odam, boylik va kambag'allik, bilimdonlik va bilimsizlik, oq – qora kabi so'zlar ishtirokida ma'noli gaplar tuz.	5	0-2
25	Quyidagi so'zlarni eslab qol: maktab, qo'g'irchoq, yulduz, ruchka, oy, uka, choynak.	5-7 ta suz 5 ball	0-2
26	Quyidagilarning vazifasini aytib ber: 1) qo'g'irchoq, 2) o'quvchi, 3) samolyot, 4) ota – ona 6) yog'och	5	0-1

Bolalar o'yinlarini boshqarishda aqliy rivojlantirish.

Bolalarning ijodiy syujetli-rolli o'yinlariga rahbarlikni to'g'ri rejalashtirish uchun tarbiyachi bolalarning yaxshi ko'rgan o'yinlarini, ularning mazmunini, bolalarning o'yinda qanday birlashishlarini (kim kimga qo'shiladi va qanday o'yinlarni o'ynaydi), bolalarning o'yinda qanchalik mustaqilliklarini, qanday o'yinchoqlarni afzal ko'rishlarini, yoshdan-yoshga bolalarning o'yinlari qanday rivojlanishini (mazmuni qanday o'zgarishi va boyishi, o'yinda bolalar xulq-atvorining murakkablashishi, ularning mustaqilligining ortishini) bilishi kerak. Mazkur guruh bolalarining o'yinlarini har tomonlama o'rganish juda muhim, chunki bolalarning o'yin faoliyatlari emas, balki tarbiyachining unga rahbarlik qilishiga oid pedagogik faoliyati rejalashtirilishi lozim. Tarbiyachi o'zining o'yinlarga rahbarligini rejalashtirar ekan, o'yinda bola mustaqilligini saqlash va rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Ijodiy syujetli rolli va qurish-yasash o'yinlariga rahbarlikni rejalashtirishda pedagogik ta'sirning muayyan vazifalari: mazmuni boyitish, bolalarda o'yinchoqlar bilan o'ynash ko'nikmasini, o'yin jarayonida bir-birlari bilan to'g'ri munosabat o'rnata bilishni shakllantirish, bolalarga yangi o'yin harakatlarini o'rgatish, syujetni tuza bilish, o'yin yuzasidan kelisha bilish, zarur o'yin muhitini yaratish va shu kabilar qo'yiladi. Bunda tarbiyachi faqat jamoa bo'lib o'ynashga emas bolalarning yakka tartibda o'ynashlariga ham e'tibor beradi

Rejada bolalarning xulq-atvorlarini: bir-birlariga xayrihox munosabatni, bir-birlarining o'yinga qiziqishlari bilan hisoblashishni, o'yinchoqlarni o'rtoqlashish, yuzaga keluvchi nizolarni haqgo'ylik bilan hal qilish va shu kabilarni tarbiyalash vazifalari ham nazarda tutiladi. Bu vazifalar uzoq muddatga mo'ljallanadi, shuning uchun rejada ko'p karra takrorlanadi.

Ijodiy o'yinlar mazmunini boyitish - rahbarlikning asosiy vazifalaridan biridir. Ish rejasida u turlicha aks ettiriladi: muayyan mavzu ko'rsatilmay o'yin mazmunini boyitish masalasi qo'yilishi mumkin (masalan: Aziza, Feruza, Fydfhanvarlar o'yinida qatnashish. Ularga o'yinchoqlarni tanlashda yordam berish, ular bilan o'ynashni ko'rsatish). Ko'p hollarda bunday vazifalar bolalar bog'chasining kichik guruhlarida nazarda tutiladi. O'rta va katta tarbiya yoshidagi bolalar o'yinlariga rahbarlikni rivojlantirishda tarbiyachi o'z guruhidagi bolalarning qaysi o'yinlarini va qanday o'ynashlarini yaxshi bilganligi uchun muayyan mavzudagi o'yinlar mazmunini boyitishni maqsad qilib olishi, bunda o'z ta'sir usullarini ko'rsatishi ham mumkin.

Rejaga o'yinda bolalarning o'zaro munosabatlari va xulq-atvorlarini tarbiyalash vazifasini kiritib, tarbiyachi bolalar o'yinlarining mazmunini va ularning o'ynash ko'nikmalarini hisobga oladi.

Rejada bolalarning ijodiy o'yinlariga rahbarlikning asosiy usullari ham nazarda tutilishi kerak. Eng avvalo bolalar o'yinlariga bilvosita ta'sir ko'rsatish usullari: bolalarning o'yin mazmuniga aloqador bilimlarini kengaytirish, o'yin materialini kiritish ba'zan esa uni bolalar bilan tayyorlashni rejalashtirilishi mumkin. Bolalarning atrofdagi hayot haqidagi bilimlarini kengaytirish, bilimlar sistemasi orqali amalga oshiriladi. Ammo buning uchun tarbiyachida mashg'ulotdan boshqa paytda ham imkoniyat bor: sayrlar va o'yin chog'ida hamda

bo'sh vaqtlarda. O'yin xonasidagi o'yinchoqlardan bolalar mustaqil foydalanadilar.

Yangi o'yinchoqlarni ko'pincha ular o'yin mazmunini boyitish mumkin bo'lgan hollarda kiritadilar.

Bevosita rahbarlik usullarini ham (o'yinda, kelishuvda qatnashganda, o'yin harakati, o'yinchoqdan foydalanish usulini ko'rsatishganda, maslahat, ko'rsatma va shu kabilar)da rejalashtirish mumkin, buning uchun tarbiyachi o'z guruhi

bolalarining o'yinlarini yaxshi bilishi kerak (masalan, u o'yinlarda bolalarning muayyan guruhining qatnashishini rejalashtirish mumkin). Agarda bolalarning o'yinga qiziqishlari boyitilmagan bo'lsa, tarbiyachi xilma-xil usullar (o'yin muhiti yoki uning tarkibini yaratish, ayrim o'yinchoqlarni kiritish, ro'rilgan o'yin haqida hikoya qilish, o'ynayotgan bolalar tasvirlangan rasmlarni ko'rish va shu kabilar)dan foydalanib, yangi o'yinni taklif qilishni rejalashtirishi mumkin. Yangi o'yinni taklif etishning asosiy sharti - bolalikda keng taassurotlarga ega bo'lishdir.

O'yin-dramalashtirishni rejalashtirishda bolalarga dramalashtirish mo'ljallanayotgan badiiy asarni oldindan tanishtirish, so'ngra qayta o'qish, qahramon nomidan hikoya qilish va shu kabilar nazarda tutiladi. Kostyum, dekoratsiyalarning murakkab bo'lmagan tarkiblarini tayyorlash, so'ngra o'yinning o'zini o'tkazishni ham kechki soatlarga mo'ljallash maqsadga muvofiqdir. O'yin-dramalashtirish ko'p karra takrorlanadi: u boshqa guruhlar bolalariga, ota-onalarga ko'rsatilishi, bayram dasturiga kiritilishi mumkin.

Kun davomida tarbiyachi xilma-xil harakatli va didaktik o'yinlarni uyushtiradi, ularga rahbarlikni ham rejalashtiradi. Reja didaktik o'yinlardan ularning mazmuni, qoidalari va aqliy vazifalari tabiatiga ko'ra foydalanish izchilligini nazarda tutishi kerak

Bolalarning mehnat faoliyatlarini rijojlantirishda bilish jarayonlarini shakllantirish.

Bolalarning mehnat faoliyatlarini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish ma'quldir. Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqdan foydalaniladi. O'z mazmuniga ko'ra topshiriqlar turlicha bo'lishi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so'ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu tarbiyachiga mazkur topshiriq bilan barcha tarbiyalanuvchilarni qamrab olish va

ularni kerakli mehnat topshiriqlarini bajarishga o'rgatish, barcha bolalarning qo'lidan keladigan bo'lib borishiga ko'ra tarbiyachi o'zining alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan bolalarning ismlarinigina ko'rsatib beradi.

Bolalar navbatchiligiga rahbarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mehnat hajmi va mazmunini, o'zi bolalarga navbatchilarning vazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, metod va usullarni ko'rsatadi.

Keyinchalik navbatchilik ishiga rahbarlik rejada mehnat mazmuni murakkablashgan, navbatchilikka jalb qilinayotgan bolalar tarbiyachining alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan hollarda ko'rsatiladi. Vaqti-vaqtida navbatchilik bolalarning birlaridan ikkinchilariga topshirilayotgan vaqtda (katta guruhda) bolalar bilan suhbat rejalashtiriladi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi, o'tkazish vaqti ko'rsatiladi zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi.

I L O V A

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun o'yinlar "ChUMChUQLAR VA AVTOMOBIL "

O'yinning maqsadi tarbiyachining buyrug'i bilan bolalarni turli yo'nalishda, bir-biriga urilmasdan harakat qilishga va yo'lni o'zgartirib, o'z joyini topib olishga o'rgatishdan iborat.

Bolalar maydoncha yoki xonaning bir tomoniga qo'yilgan stullarda yoki skameykalarda o'tiradilar. Bolalar chumchuqlar, u erda esa in bo'ladi.

Ikkinchi tomonda turgan tarbiyachi avtomobilni ifoda etadi. U: "Qani, chumchuqlar, yulga uchib tushamiz", deydi, shunda bolalar maydoncha bo'ylab xuddi chumchuqqa uxshab, qo'llarini qanot qilib qoqib yuguradilar. Oradan bir oz o'tgach, tarbiyachi: "extiyot bo'linglar, avtomobil kelyapti. Qani qushchalar in-inlaringizga kiringlar", deydi. Avtomobil garajdan chiqib, chumchuq dorga qarab yuguradi. Chumchuq dordan inlariga qarab uchadilar (joylariga borib o'tiradilar). Avtomobil esa garajga qaytadi.

Dastlab o'yinda 10-12 bola, keyin butun guruh katnashadi. Tarbiyachi oldin chumchuqdarning qanday uchishini, qanday don cho'kishini ko'rsatib beradi. Bolalar chatoqlik qilib tarbiyachining harakatlarini takrorlaydilar. Keyin o'yinda avtomobilni tarbiyachining o'zi ipga bog'lab sudrab yuradi. Faqat o'yinni bir necha marta takrorlagandan keyingina, harakatchanroq bir bolaga avtomobilni olib chiqish va sudrab yurishni topshirish mumkin. Qushchalar o'z inlariga etib olishlari uchun avtomobil' juda tez yurmasligi kerak.

"POEZD"

O'yinning maqsadi bolalarni bir nechtadan bo'lib, avval bir-birining orqasidan ushlab, keyin ushlamasdan yurishga, yugurishga va to'xtatishga o'rgatishdan iborat.

Tarbiyachi bolalarga bir-birining orqasidan turishni taklif qiladi: "Sizlar vagonchalar, men parovoz bo'laman", deb o'zi bolalarning oldiga borib turadi. Parovoz xushtak chaladi-da, dastlab asta-sekin harakatlanib, so'ng tez yurib ketadi (tarbiyachi "du-du-du" deb ovoz chiqaradi, bolalar uning ketidan qadamlarini asta tezlatib, keyin yugurib ketadilar). So'ngra tarbiyachi harakatni sekinlashtirib, asta-sekin to'xtaydi va "Poezd bekatga etib keldi. Mana bekat", deydi-da, yana xushtak chalib, yurib ketadi.

Dastlab besh-oltita bola ketma-ket turadi, qolganlari stolchalarda o'tirib tomosha qilishadi. O'yinni takrorlaganda bolalar soni 12-15 kishiga etishi mumkin. O'yin ko'p marta takrorlangach, eng chaqqon bolaga parovoz bo'lishni topshirish mumkin. Vagonlar bir-biridan uzilib qolmasligi uchun parovoz juda tez yurmasligi kerak

"SAMOLYOTLAR"

Bu o'yinda bolalar bir-biriga tegmasdan, turli yo'nalishda yugurishga o'rgatiladi, shunda ular signalni darrov ilgab olib, harakatni boshlashga odatlanadilar.

Bolalar samolyotda o'tirgan o'quvchilarni ifoda etadilar. Ular maydonchani soha er, soha erida turadilar. Tarbiyachi "Uchishga tayyorlaning!" deganda, qo'llarini tirsaklan bukib oldilarida aylantiradilar, ya'ni motorni ishga soladilar.

"Uchinglar!" deganda qo'llarini yon tomonlariga uzatib, maydoncha bo'ylab tarqalib yuguradilar. "Qo'ning!" deganda samolyotlar to'xtab, erga qo'nadilar (bolalar bitta tizzalarini erga qo'yib cho'nqayadilar). O'yin 5-6 marta takrorlanadi.

O'yinni bir o'z murakkablashtirish mumkin. Buning uchun bolalar 3-4

guruhga bo'linadi. "Kuning!" deganda, o'z joylarini topib turadilar, tarbiyachi qaysi

guruh; samolyotlari birinchi bo'lib to'planganini ta'kidlaydi. O'yin kichiq va o'rta guruhlarga bo'lib o'tkazilsa, yaxshi bo'ladi. Kichkintoylarga bu o'yin qiyinlik qiladi.

"PUFAK"

O'yinda bolalar doyra bo'lib goh keng, goh guj bo'lib turishga o'rgatiladi, berilgan buyruqqa mos harakat qilishga odatlantiradi.

Bolalar tarbiyachi bilan birga qo'l ushlab, kichkina doiracha yasab, bir-birlariga yaqin turadilar. Tarbiyachi she'r aytadi.

Pufaq pufaq aytaman:

Shishib yana katta bo'l.

Doimo shunday qol,

Yorilmay qo'ya qol.

Shundan keyin bolalar bir-birlarining qo'llarini qo'yib yubormasdan, orqaga yura boshlaydilar. Tarbiyachi: "Pufak yorilib ketdi", deyishi bilanoq, bolalar yurishdan to'xtab, qo'llarini tushirib, cho'nqayib o'tiradilar va "paq", "paq", deydilar.

"Pufak yorilib ketdi", degan so'zlardan keyin bolalar qo'llarini qo'yib yubormasdan doira markazi tomon yurishni taklif qilish mumkin. Ular doira markaziga qarab "sh-sh-sh-sh" deydilar (havo chiqib ketadi). Keyin yana "pufak shishiriladi".

O'yinda dastlab 6-8, keyin 15-16 ta bola ishtirok etadi. So'zlarni shoshilmasdan aniq, aytish, bolalarni tarbiyachi bilan so'zlarni takrorlashga jalb qilish lozim.

Bolalarni maktabga aqliy tayyorlash ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Aqliy

tayyorgarlik o'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Darhahoqat shunday ekan, bolalarni maktabga, psixologik jihatdan tayyorligi shaxs ta'lim-tarbiyasi va kamoloti uchun muhim poydevor hisoblanadi. Pedagog psixologlarimiz bolalarni maktabga aqliy tayyorlashga psixologik, fiziologik, jismoniy tomondan har tomonlama rivojlantirsagina ta'lim jarayoniga qo'yilgan maqsadga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: V 2 kn. Per. s ang. (Pod red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo M. Pedagogika, 1982g.).
2. Bleyxer V.M. Burlachuk L.F. Psixologicheskaya diagnostika intellekta i lichnosti. K. Visha shk, 1978 g. 142 st.
3. Burlachuk L.F. Psixodiagnostika lichnosti. K. Zdorovya. 1989 g. 168 st.
4. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Krutenstkiy V.A. Krbiliyat va uning diagnostikasi. T., "Ukituvchi" 1979 y.
5. Obshaya psixodiagnostika. M: Izd-vo M., Un-ta. 1987 g. 305 st. Pod red. A.A.Bodaleva.
6. Praktikum po psixodiagnostike, Differentsialnaya psixometrika. (Pod red. V.V.Stolina, A.G.Shmeleva. M: Izd-vo M., Un-ta, 1984 g. 154 st.
7. Taluzina N.F., Karpov Yu.V. Pedagogicheskaya psixologiya. M: Izd-vo M, Un-ta 1987 g.
8. Goziev E.G. Ukuvchilarning umumlashtirish usullariga urgatish va ularning akdiy tarakkiyoti. T., "kit" 1983 y.
9. Goziev E.G. Tafakkur psixologiyasi. T., 1990 y.
10. Goziev E.G. Psixologiya. T., "Ukituvchi" 1994 y.
11. Goziev E.G. Akdiy kamolotingizni anikday olasizmi? "Universitet" 1996 y. T., "Universitet" 1996 y.
12. Goziev E.G. Zamonaviy va individual va guruxiy psixologiya. T., Universitet. 1999 y. 1,2 b.t.
13. Goziev E.G. Psixologiya muammolari. T., "Iktisodiyot universiteta" 8,5 b.t.

%

14. Stentr psixologicheskoy slujby. Seriya: Diagnosticheskiy bank shkolnogo psixologa. Выпуск 6. Diagnostika intellektualnyx sposobnostey s pomoshchyu testa SGT R.B.Kettela. M.1994.
15. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat asoslari. . 1999. 96 b.
16. E.G'oziyev "Psixologiya (yosh davrlari)" Toshkent 1994
17. A.V Petrovskiy "Umumiy psixologiya" Toshkent: O'-1994
18. P.I. Ivanov "Ta'limning psixologik asoslari" T: 1991
19. E.G'oziyev, G.To'laganova "Pedagogik psixologiya asoslari" Toshkent: Universitet 1997
20. E.G'oziyev "Tafakkur psixologiyasi" Toshkent: O'-1990
21. E.G'oziyev "Oliy maktab psixologiyasi" Toshkent: 1997
22. E.G'oziyev "Inson psixikasining rivojlanishi" Toshkent: Universitet 1998
23. M.G. Davletmin "Ta'limning psixologik asoslari"
24. Sh.R.Barotov "O'quvchi shaxsini o'rganish usullari" Toshkent: O'- 1995
25. Sh.R.Barotov "O'quvchi shaxsini va snf jamoasini tahlil qilish usullari" Toshkent: O'- 1994
26. M.Vohidov "Bolalar psixologiyasi" Toshkent: O'- 1982
27. . M.Vohidov "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixologiyasi" Toshkent: 1970
28. . E.G'oziyev "Xotira psixologiyasi" Toshkent Universitet 1994
29. K.Turg'unov "Psixologik terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" Toshkent 1985
30. Q.Daminov O'Otavaliyaeva, X. Ibraximov "Psixologiyadan seminar va laboatoriya mshg'ulotlari" Toshkent: O' 1994